

G'azallar

Ne ko'ray to'boni[1] qaddi[2] xushxiroming borida?!
Ne qilay sunbulni[3] xatti[4] mushkfoming[5] borida?!
Kim Xizr suyin og'izlag'ay labingning qoshida?
Kim Masih alfozidin[6] degay kaloming borida?!
Oshiqingni davlati vasling bila qil muhtaram,
Xusn ahli ichra muncha ehtiroming borida.
Bizdin ayru doim el birla icharsen bodani[7],
Bizni ham gohi sog'in shurbi[8] mudoming borida.
Ey ko'ngul, gar g'ayr so'zi zahri qotildur, ne g'am,
Lablaridin sharbati yuhyil-izoming borida.
Tarki nomus aylabon badnom bo'lg'il ishq aro,
Kim seni oshiq degay nomusu noming borida?![9]
Bobur, ul gul ko'yida bulbul kibi topting maqom,
Bir navoye rost qil mundoq maqoming borida[10].
* * *

Keltursa yuz baloni o'shal bevafo manga,
Kelsun agar yuzumni evursam[11], balo manga!
Netgaymen ul rafiq[12] bilakim, qilur base,
Mehru vafo - raqibg'a, javru jafo - manga.
Begona bo'lsa aql meni telbadin, ne tong,
Chun bo'ldi ul parisifatim oshno manga.
Ohu yoshimdin ortadurur za'f[13], ey tabib,
Bildim: yarashmas emdi bu obu havo manga.
Dardim ko'rub, muolajada zoye' etma umr -
Kim, jonda dardi ishqdurur bedavo manga.
To yor kimni iyetaru ko'ngliga kim yoqar,
Tashvish bejihatdurur oxir sango, manga.
Bobur, bo'lubturur ikki ko'zum yo'lida to'rt,
Kelsa ne bo'ldi qoshima bir-bir mango manga.
* * *

Chun falak qo'yimas meni bir laxza vasl ayyomida,
Tong yo'q, ey bemehr, agar o'lsam firoqing shomida.
Ey ko'ngul, yuzin ko'rub, zulfi parishonin sog'in,
Shomi xijrondin tavahhum[14] ayla vasl ayyomida.
Zulfidakim maskan etting, ko'r zanaxdon[15] choxini,
Voqif o'lg'ilkim, erursen ajdahrning komida.
G'unchadek og'zing g'ami ko'nglumda gar yo'q, bas nedur
Chok ko'nglum xay'ati gul g'unchasi andomida?[16]
Yorning payg'omi yetkach, topti jon farsuda tan,
Iso e'jozi[17] magar muzmardurur[18] payg'omida?
Bobur, ul gul zulfi ostinda emastur xollar,
Jon qushin sayd4 aylar uchun donalardur domida.
* * *

Yog'lig'ingkim[19], jon bila men xastadurmen, zor anga,
Xasta jonlar rishtasidindur magar xar tor anga?
Evrulur boshing'ayu gox,i yuzunga yuz qo'yar,
Bu jihattin ot emish "gulpech"u gax, "gulzor" anga.
Bir chamandur saxnikim, bo'lg'ay binafsha sarbasar,
Tegrasi gulzordurkim, bo'lmag'ay bir xor anga.
Yog'lig'ing tokim yuzu ko'zushta tegmish, bordurur
Yuz meningdek zoru yuz ming men kibi bemor anga.
Ey ko'ngul, yuz pora qilsa yor tig'i, g'am yema,
Lutf etib, gar bog'lar o'lsa yog'lig'ini yor anga.
Ko'nglum istar yog'lig'ingni, bapki andin bir nasim
Yetsa Boburg'a erur jon birla minnatdor anga!
* * *

Ul parining tig'idin qo'rqutma meni, ey raqib,
Ishqida boshing'a mening har ne kelsa, yo nasib!
Evrulub boshing'a, ey oy, qilmisham tarki vatan,
Rahm qilg'il mangakim, sargashtadurmen, ham g'arib.
Telba bo'lmoqlig'din o'zga choraye yo'qtur manga,
Ul pari'ro' nogahon ar[20] chiqsa uydin yosanib.
Jonda berkitgan o'qin chekmak[21] manga ranjedurur,
Qo'yg'il ul o'qni, chekay deb ranj chekma, ey tabib!
Boburo, xargiz quloq she'ringg'a ul gul solmadi,
Gulga ne parvoye, yuz faryod qilsa andalib.
* * *

Eshikingga bosh urarmen telbalar yanglig' yurub,
Ey pari, yo'l ber visolingg'aki, ketmay bosh urub.
Sarv qadding borida o'z qaddini chun qildi vasf,
O'tqa yoqti bog'bon sarvi sixisin sindurub.
O'lturub erdi, qo'pub ketmakka chun azm ayladi,
Yona tirguzdi meni, alhamdulillah, o'lturub.
Ko'zlari sayd aylar uchun telba ko'nglumni mening
Qoshi yosini qurub, kirpik o'qini to'ldurub.
To sabo zulfini ul gulning parishon ayladi,
Jon bila aqlu ko'ngulni yelga berdim sovurub.
Topshurub erdim ko'ngulni yorg'a, chun bordi yor,
Qamdani ettim xasta ko'nglumni Xudoga topshurub.
Bo'ynuma zanjiri g'am, yo bo'g'zuma tig'i sitam,
Har ne kelsa ishq yo'lida turubmen telmurub.
Men bilurmen ko'zi qotil, la'li l jonbaxsh erkanin,
Chunki, Bobur, hajrida ko'p yig'ladim og'zim qurub.
* * *

G'ofil o'lma, ey soqiy, gul chog'in g'animat tut!
Vaqti aysh emas boqiy, ol chog'ir, ketur, bot tut!
Bu nasihatim tingla: ne bo'lur kishi yongla,
Ne bo'lur ekin tongla, sen bu kun g'animat tut!
G'ofil o'lma davlatta, o'zni solma mehnatga,
Tangri berur albatta, davlat ista, himmat tut!
Xushturur visoli yor, anda bo'lmasa dayyor[22],
Bo'lsa vasl beag'yor davlatu saodat tut!
G'am cheriki behaddur, chorasi budur, Bobur:
Bodani ko'mak keltur, jomni himoyat tut!
* * *

Ey yuzi nasrin, qomati shamshod,
Necha qilursen jonima bedod?
Sen kibi purkor[23], shevasi[24] bisiyor,
Bilmadi, ey yor, hech kishi yod.
Javrda nodir, zulmda mohir,
Ishvada qodir, g'amzada ustod.
Yor g'amidin, hajr alamidin,
Sabr kamidin nolayu faryod!
Boburi bedil[25], ey buti qotil,
Javrunga moyil, zulmunga mu'tod[26].
* * *

Shoh Sulton Uvays binni Mahmud[27],
Moh Sulton Uvays binni Mahmud.
Qaddu og'zingdin ayru tortarmen -
Oh, Sulton Uvays binni Mahmud.
Meni yod ayla bazmi ishqingda
Goh, Sulton Uvays binni Mahmud.
Xushturur hamrahim agar sensen -
Roh, Sulton Uvays binni Mahmud.
Podshahdur agarchi Bobur lek,
Shoh Sulton Uvays binni Mahmud.
* * *

Balo'i ishqki, har dam manga jafoyedur,
Bu ishqdin kecha olmon[28], ajab baloyedur.
Xati labig'a tutosh bo'lsa, ey ko'ngul, ne ajab-
Ki, Xizr chashmai hayvonga[29] rahnamoyedur.
Yarar bu xasta ko'ngul dardig'a o'qin yarasi,
Magarki har yarasi yorning davoyedur.
Bahor fasliduru may havosi boshimda,
Ayoq[30] tut manga, soqiyki, xush havoyedur.
Ul oy raqibg'a bo'ldi rafiqu Boburning
Rafiqu hamdami hajrida ohu voyedur.
* * *

Yangi oy yor yuzi birla ko'rub el shodu xurramlar,
Manga yuzu qoshingdin ayru bayram oyida g'amlar.
Mening bu tori mo' yanglig' tanimg'a toblar soldi
Ul o'ning yuzida sunbul kibi zulfidag'i xamlar.
Havog'a dudi ohin tutatur ishq ahli g'ayratdin,
Sabo tahrکیدin[31] har gah parishon bo'lsa parchamlar[32].
Ochildi zulfiyu xaylar[33] namudor[34] o'ldi yuzida,

Gul uzra chun bo'lur paydo kecha ochilsa shabnamlar.
Menu kunji[35] g'amu ohu fig'onu ashki xunolud[36],
Ne xushdur go'shai xoli, mayi sofiyu hamdamlar.
Ko'ngulni ishq buzdi, ne asig'[37] pandu nasihatdin,
Mening majrux. ko'nglumga yarashmas ushbu marhamlar.
Yuzi navro'ziyu vasli iydini, Bobur, g'animat tut -
Ki, mundin yaxshi bo'lmas bo'lsa yuz navro'zu bayramlar.
* * *

Ochilib ikki sochi, yuziga yoyilmishlar,
Yoruq jahonni ko'zumga qorong'u qilmishlar.
Chog'ir bag'ir qonidur barcha ishq ahlig'a,
Zihi alarki, bu maydin dame oyilmishlar.
Ne qilsam, aylama, ey yor, aybkim, menda
Jununu ishq yigitlik bori qotilmishlar.
Salohqa xirad ahli meni yovuq derlar,
Ko'rungki, ushbu chechanlar yiroq yongilmishlar.
Ne sud ishqni eldin yoshurmoq, ey Bobur,
Chu holatingni bori olam ahli bilmishlar.
* * *

Xati - binafsha, xadi - lola, zulfi rayhondur,
Bahori husnda yuzi ajab gulistondur.
Iki mengi oyu dog'i yuzu so'zi gulu mul,
Qadi ravonu tani jonu irni marjondur.
Qoshida chinu ko'zida kinu angabin labida,
So'zida zahr va lekin tilida darmondur.
Qoshing'ga ko'p bora olmon, netay, aroliqda,
Yoshim tishing duridin ayru bahri Ummondur.
O'tumni tez etasen har tarafg'a sekretib ot,
Samandi noz inonini bir beri yondur.
Ne nav' vasf qilay surating latofatini -
Ki, husnunga sening, ey ruh, aql hayrondur.
Jafoyu javr agar qilsa, Boburo, netayin,
Ne ixtiyor manga, har ne qilsa, sultondur.
* * *

Za'fdin go'yo mening bu zor jismim noldur -
Kim, oning sharhin demakta xoma tili loldur.
Za'fliq jismim bila bu notavon ko'nglum aro
Dard yor erkanga ushbu egma qaddim doldur.
Men damodam qon yutarmen hajr ayog'idin, netay,
O'zgalarning jomi vasli garchi molomoldur.
Zulfig'a vobastamen, vaslig'a yo'qdur dastras,
Ey xush ul ozodakim, beqaydu forig'boldur.
Ul paridin men nechuk jon eltamenkim, Boburo,
Vasli mushkil, xajri muxliq g'amzasi qattoldur.
* * *

Ko'k vusmada ul oy qoshi go'yo xayoldur,
Yo oy boshida ko'kta ko'rungan hiloldur.
Ne nav' o'xshasun yuziga oftobkim,
Oning zavoli borduru bu bezavoldur.
Og'ziyu ikki zulfu qadi bo'lmasa manga,
Rayhonu sarvu g'uncha ko'rardin maloldur.
Ushshoq oxi yelidin osib topmasun
Qaddingki, husn bog'ida nozik niholdur.
Ko'nglumga dard kelgali xam bo'ldi qomatim,
Qaddim magarki "dard" yonidag'i "dol"dur.
Garchi vafoyu mehoni bilmas mening oyim,
Lekin jafoyu javrda sohibkamoldur.
Har necha beinoyat esa yor, Boburo,
Sen qo'yma xidmatingniyu oni uyoldur.
* * *

Ko'nglumni chu ul pari olibtur,
Devona bo'lurg'a ne qolibtur?!
Bedil ekanimni emdi bilgay,
Chun bir kishi ko'nglini olibtur.
Ko'nglumni olib, tag'ofulin ko'r,
Bilmasga o'zini ne solibtur.
Zulfung cherigini yig'ki, jam'i

Bu fitnadin asru qo'zg'olibtur.
Bobur, necha kun ko'ngulni xush tut,
Bu olam ishi chun munqalibtur.
* * *

Vaslin ul oy manga muhol qilur,
Hajridin meni xastahol qilur.
Bilmayin holatimni ul bemehr,
O'zgardek meni xayol qilur.
Ol yuzi ko'z yoshimni qon qildi,
Ko'rgach-o'q deb edimki, ol qilur.
Sarfarozi etsa daxr, shod o'lma,
K-oxir ul-amr poymol qilur.
Men kimu zuhdu tadbakim, zohid
Necha andishai mahol qilur.
Tavba ishin buyurma Bobur'a -
Kim, bu ishni o'shal o'sol qilur.
* * *

Mendin o'zga xastalarg'a la'lidin darmon berur,
Men berurmen jonu ul umr o'zgalarga jon berur.
Oshiqi men, ul qilur ag'yorg'a maxbubluq,
Dardmandi men, vale ul o'zgaga darmon berur.
O'qida paykon emas, bir qatra hayvon suyidur,
Yetgach-o'q jonsiz tanimga jon o'shal paykon berur.
Qosh yoshimni xajrida, she'rimni vasfida ko'rung -
Kim, bu yanglig' durru gavhar qaysi bahru kon berur?
Bo'lg'ali qaddig'a moyil vaslidin mahrummen,
Boburo, ul husn naxli bar magar hirmon berur
* * *

Qaro zulfung firoqida parishon ro'zgorim bor,
Yuzungnung ishtiyoqida ne sabru ne qarorim bor.
Labing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi,
Nega holim yamon qildi, men ondin bir so'rurim bor.
Jahondin manga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,
Ne g'am yuz muncha xam bo'lsa, seningdek g'amgusorim bor.
Agar muslixmen, ar mufsid va gar oshiqmen, ar obid,
Ne ishing bor sening, zohid, meningki ixtiyorim bor.
Fig'onim oshti bulbuldin, g'ami yo'q zarra bu quldin,
Base, Bobur, o'shal guldin ko'ngulda xorxorim bor.
* * *

Gul jamolin yopqon ul gulning iki rayhonidur,
G'uncha sirrin ochqon ul ikki labi xandonidur.
Ul musalsal ikki zulfi gul yuzining davrida,
Gul uza ag'nar, magar ul ikkining davronidur.
O'qi zaxmini ko'rub har yon tanimda, el degay -
Kim, bu ko'hi dardning ul lolai nu'monidur.
Sel emasdur yer yuzin tutqon - ko'zumning yoshidur!
Ra'd emasdur ko'kka chirmashqon - ko'ngul afg'onidur!
Lojaram, bo'lg'ay parishonu xavoyi men kibi
Zarra yanglig' kimki bir xurshid sargardonidur.
Ul pari ishqida, Bobur, qo'nglum andoq telbadur b"b"
Kim, sochi zanjiridur, chohi zaqan zindonidur.
* * *

Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur.
Agar ul qoshi yosiz bog' gashtin orzu qilsam,
Ko'zumga o'qdurur sarvu ko'ngulga g'uncha paykondur.
Bahoru bog' sayrin ne qilaykim, dilsitonimning
Yuzi - gul, zulfi - sunbul, qomati sarvi xiromondur.
Visoli lazzatidin ruh topmog'liq erur dushvor,
Firoqi shiddatida yo'qsa jon bermaklik osondur.
Boshidin evrurur armoni birla o'ldum, ey Bobur,
Mening na'shimni bori ul pari ko'yidin aylondur.
* * *

Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkildur,
Sening birla chiqishmog'liq dog'i bisyor mushkildur.
Mizojing noziku sen - tundu, men - bir beadab telba,
Sanga xolimni qilmoq, ey pari, izhor mushkildur.
Ne osig' nolayu faryod xobolud baxtimdin,

Bu unlar birla chun qilmoq ani bedor mushkildur.
Manga osondurur bo'lsa agar yuz ming tuman dushman,
Vale bo'lmoq jahonda, ey qo'ngul, beyor mushkildur.
Visolinkim tilarsen, nozini xush tortg'il, Bobur -
Ki, olam bog'ida topmoq guli bexor mushkildur.
* * *

Ichgucha jomi ajal ko'nglumda ul soqi(y)durur,
To'lg'ucha paymonam ul soqi(y) bila boqi(y)durur.
Bosh ko'tarmon bodadin chun bor ayog'i o'rtada,
Qo'ymon ilgimdin' ayoq chun jilvagar soqi(y)durur.
Egma qaddim ayb qilma qoshi yolar ishqida,
Yangi oydek xam bo'lur gar xud falak toqidurur.
Ul hiloling birla xurshiding sifotin yozg'ali
Muxtasardur filmasal gar charx avroqidurur.
Ishq ila maydin ko'ngulni tutmog'ing ne sudkim,
Dard naf'idur nechukkim, zaqr taryoqidurur.
Turklar xatti nasibing bo'lmasa, Bobur, ne tong,
Boburiy xatti emasdur, xatti sigaoqi(y)durur.
* * *

Yordin ozor ko'nglum ichra behad bordur,
Ey xush ul ko'ngul, anga ne yoru ne ozordur.
Yo'qturur gar yor - yo'qtur toqatu sabru shikeb,
Yor agar bordur, jafoyu javru mehnat yordur.
Necha ko'rsatsam vafoyu mehr, etar javru jafu,
Nechakim men zormen, mendin ul oy bezordur.
Ko'zi hajrida, yuzi yodida, so'zi shavqida,
Xotirim afgoru jismim zoru ko'z xunbordur.
Senda, Bobur, yo'q gunah, yorning itobi kam emas,
Jurmsiz doim itob aylar - ajab dildordur.
* * *

Yuzida ul labi xandon ko'runur,
Sutga ko'p boqsa, bale, qon ko'runur.
Xatti mushkinmudurur gul yuzida,
Yo suman ustida rayhon ko'runur?
Ko'rmagay xotirini jam' o'zga,
Kimga ul zulfi parishon ko'runur.
Ishqni el ne xayol aylabdur,
Asru mushkildurur - oson ko'runur.
Sarv bo'yliq sanaming, ey Bobur,
Rost aytay, so'zi yolg'on ko'runur.
* * *

Bahor ayyomidur, dog'i yigitlikning avonidur,
Ketur, soqiy, sharobi nobkim, ishrat zamonidur.
Gahi sahro uzori lola shaklidan erur gulgun,
Gahi sahni chaman gul chehrasidan arg'uvonidur.
Yana sahni chaman bo'ldi munaqqash ranga gullardin,
Magarkim sun'ning naqqoshig'a rang imtihonidur.
Yuzung, ey sarv, jonim gulshanining toza gulzori,
Qading, ey gul, hayotim bog'ining sarvi ravonidur.
Ne yerda bo'lsang, ey gul, andadur chun joni Boburning,
G'aribingg'a tarahhum aylag'ilkim, andijonidur.
* * *

To uzuldi ko'nglum ul oy qaddidin afsurdadur -
Kim, uzulgan g'uncha gulning shoxidin pajmurdadur.
Ko'ksun ichra tah-batah qonni bag'ir qilmang xayol -
Kim, aning ishqin yo'lida bir tah Etgan gurdadur.
Husn ko'rmas ko'zlarim, ko'nglum dog'i ishq istamas,
Go'iyokim ko'zlarimdur ko'ru ko'nglum murdadur.
Tan hijobin raf' qil, gar yor vaslin istasang,
Ey qo'ngul, bilkim, aroda hoyil ushbu pardadur.
Bormu erkin ishq elinda, balki olam ahlida
Muncha chog'lig' hasratu anduhkim Boburdadur?!
* * *

Sochiyu qoshiyu ko'zidin boshta havodur,
Ne boshda havo - har birisi boshqa balodur.
Qosh yosi bila ul qora ko'z g'amza o'qini
Ushshoqdin o'zga sorig'a otsa xatodur.
Gar chin desangiz, ko'zi oning ohui Chindur,

Xattini, xato qilmasangiz, mushki Xitodur.
Evrulsam oning boshig'a, topshursam onga jon,
Jonimda havas ulduru boshda bu havodur.
Ishq ichra yoshurg'on yurakim qonini, vahkim,
Bu seli sirishkim bori olamg'a yoyodur.
Bobur desa oyini, ne tong, javru jafoliq -
Kim, husn eli oyini, bale, javru jafodur.
* * *

Chu dod berdi manga shoh yuz umidi vafodur,
Ne sud rashki hasudoki, dod dodi Xudodur!
Ne tong, qotinda agar bo'lsa la'lu dur toshu tufroq -
Ki, ma'dani karamu judu bahri lutfu saxodur.
Agarchi dahr alamidin to'kuldi seli sirishkim,
Valek shah karamidin umidim asru to'lodur.
Yazid eliga ne miqdor g'oziylar qotidakim,
Ul eldur asru yuraksiz, bu xayl asru bahodur.
Adovat odi, muhabbat nishoni qolg'ucha, Bobur,
Aduv xayli Yazidu muhibe oli abodur.
* * *

G'urbatta ul oy hajri meni pir qilibtur,
Hijron bila g'urbat manga ta'sir qilibtur.
Maqdur borincha qiluram sa'yi visoling,
To Tengrini, bilmonki, ne taqdir qilibtur.
Taqdirdur ul yonu bu yon solg'uchi, yo'qsa,
Kimga qavasi Sanbalu Tatyir qilibtur?
Bu Hind yeri xosilidin ko'p ko'ngul oldim,
Ne sudki, bu yer meni dilgir qilibtur.
Sendin bu qadar qoldi yiroq - o'lmadi Bobur,
Ma'zur tut, ey yorki, taqdir qilibtur.
* * *

Sendek menga bir yori jafokor topilmas,
Mendek senga bir zori vafodor topilmas.
Bu shaklu shamoyil bila xud x,uru parisen -
Kim, jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas.
Ag'yor ko'z olidayu ul yor ayon yo'q,
G'am xori ko'ngul ichrayu g'amxor topilmas.
Ey gul, meni zor etmaki, husnung chamanida,
Ko'zni yumub-ochquncha bu gulzor topilmas.
Bobur, seni chun yor dedi - yorlig' etgil,
Olamda kishiga yo'q esa yor topilmas.
* * *

Qo'y, ey oqil, nasihat so'zlarinkim, dilpisand ermas,
Mening devona ko'nglumga nasihat sudmand ermas.
Necha devona ko'nglumni qilursen nafy, ey oqil,
Agarchi telbadur, bori seningdek xudpisand ermas.
Qilursen talx ayshim komini behuda so'zlardin,
Sarosar so'zlaring zahredur, ey nosihki, pand ermas.
Bo'lubmen bir parining anbarin sochig'a vobasta,
Meni telbaga emdi hojati zanjiru band ermas.
Jahonda ko'p gado garchi lavandatvorliq bordur,
Va lekin, Boburo, hargiz seningdek shah lavand ermas.
* * *

Ul oying ittifoqi nifoqig'a arzimas,
Ayyomi vasli shomi firoqig'a arzimas.
Bu dahr ichra bistari rohat tilarni qo'y,
Ul farsh chun bu ko'hna ravoqig'a arzimas.
Aysheki o'tti - o'zga ani zikr aylama,
Har nimaiki yitti - so'roqig'a arzimas.
Qilmoq umidu biym ila xidmat shah olida,
Darbonining so'kunchu tayoqig'a arzimas.
Bobur, visolni ne tilarsen, chu hajr bor,
Bir lahza ayshi mehnati boqi(y)g'a arzimas.
* * *

Oldi qo'nglumni, sog'indimkim, manga dildor emish,
Bilmadim, bu nav' mendin ul nari bezor emish.
Oshiq o'lgoch, ko'rdum ul shamshod qaddin yuz balo,
Olloh-Olloh, ishq aro mundoq balolar bor emish!
Iltifot etmasligin boziy xayol aylar edim,

Emdi bildimkim, anga mendin bu yanglig' or emish.
Ul pari ishqida yo'q o'lmoqdin o'zga choraye,
Chun o'zi - qotil, so'zi - muhlik, ko'zi - xunxor emish.
Husn ahli, ey ko'ngul, olam aro ishq ahlining
Ko'nglini soxlar emish, har kimgakim, dildor emish.
Ul vafosiz yordin chekmak ne, ya'ni muncha g'am,
Husn ahli, chunki, Bobur, dunyoda bisyor emish.
* * *

Necha davron g'ussasi bo'lg'ay mening jonimg'a xos,
Koshki o'lsam, dog'i bu g'ussadin bo'lsam xalos!
Ohu vovaylo - surudum, dardu g'am - hamsuhbatim,
Boda - ashkim qoni, kim ko'rди muningdek bazmi xos?
Gar shikastim bo'lsa sust ag'yordin, ta'n etmangiz -
Kim, shikayetig'a sabab olmosning bordur rastos.
Oshiq o'lg'och, bexudu devona bo'ldum, bilmadim -
Kim, pariruhzoralar ishqiga bu ermish xavos.
Xublarni ko'z ko'rub, qon qildi Bobur bag'rini,
Emdi ko'zdin qon to'karmenkim, budur anga qasos.
* * *

Kim ko'rubdur, ey qo'ngul, ahli jahondin yaxshilig'?
Kimki, ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshilig'!
Gar zamonni nafy qilsam, ayb qilma, ey rafiq,
Ko'rmadim hargiz, netayin, bu zamondin yaxshilig'!
Dilrabolardın yomonliq keldi mahzun ko'ngluma,
Kelmadi jonimg'a hech oromi jondin yaxshilig'.
Ey ko'ngul, chun yaxshidin ko'rdung yamonliq asru ko'p,
Emdi ko'z tutmaq ne, ya'ni har yamondin yaxshilig'?
Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q -
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'!
Yaxshilig' ahli jahonda istama Bobur kibi,
Kim ko'rubdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'?!
* * *

So'rma holimniki, bo'ldum burnog'idin zorroq,
Jism jondin zoru jonim jismdin afgorroq.
Banda taqrir aylay olmon band-bandim dardini,
Yuz temur band o'lsa, ondin bu erur dushvorroq.
Mastu bexudluq bila umrungni o'tkarding, darig',
Ey ko'ngul, mundin beri bo'l bir nima hushyorroq.
G'afat uyqusidin uygon - gar tilar bo'lsang murod -
Kim, yetar maqsadg'a har kim bo'lsa ul bedorroq.
O'lgali yettim, mening jonim g'amin ye, ey rafiq,
Dahr aro chun yo'q kishi sendin manga g'amxorroq.
Kelmas o'xshar zahmating islohg'a, Bobur, magar,
Har davokim qildilar, bo'ldung taqi bemorroq.
* * *

Yor yuzumni ko'rub, dardu g'amim bilsa kerak,
Yuz ko'rub, dardu g'amim chorasini qilsa kerak.
Ey sabo, jonu ko'ngulni o'zining chun qildi,
Ko'ngli birla degasen, joni uchun kelsa kerak.
Vaslini ne qilayin - g'ayrdin ayrilmadi hech,
Yor vasli menga, u ag'yordin ayrilsa kerak.
Vaslining qadrini chun bilmadi bu telba ko'ngul,
Hajrining tig'i oning yuragini tilsa kerak.
Shukr, Boburni bilurmen, degan ermish ul oy,
Lojaram, bandalarin shohlari bilsa kerak.
* * *

Bir pari men telbani husnig'a moyil qilg'udek,
Ko'zum ichra yer tutub, ko'nglumda manzil qilg'udek.
Ko'nglum ko'zum yuziga volayu hayron bo'lub,
Jonima yuz ming g'amu mehnatni hosil qilg'udek.
Notavon ko'nglumg'a ishqiq qayg'uni kelturgudek,
Ayshu ishratni ko'nguldin qayg'u zoyil qilg'udek.
Qilmadi Farhodu Majnun o'zni rasvo men kibi -
Kim, bu nav' ish - ish emastur hech oqil qilg'udek.
Ul pari ishqida Bobur jon berib, ey ahli ishq,
Ishq atvorini ishq ahlig'a mushkil qilg'udek.
* * *

Chiqsa quyosh falakka, sen otqa chiqqaningdek,

Bo'lg'aymu ul seningdek, ul biri tavsaningdek?
Ko'ksumni chunki yording, kirgil ko'ngulgakim, bor -
Ul yora eshigingdek, ko'z anda ravzaningdek.
Gar siym bargi gulni qilsa libos o'ziga,
Bo'lg'aymu, ey gulandom, ko'nglak bila taningdek?
Ul yor x.azratinda bisyor yaxshidur g'ayr,
Men xdm yamon emon, lek, yaxshi emon aningdek.
Da'viyi ishq etib, g'ayr, Boburni ayb qilma -
Kim, men edim seningdek, sen bo'lg'asen meningdek.
* * *

O'zni, ko'ngul, aysh ila tutmoq kerak,
Bizni unutmog'ni unutmog' kerak.
Ayshu tarab gulbunig'a suv berib,
G'ussa niholini qurutmoq kerak.
Tiyradurur zuhd damidin ko'ngul,
Ishq o'ti birla yorutmoq kerak.
Har nimag'a g'am yema - g'am ko'pturur,
Aysh bila o'zni ovutmoq kerak.
Qo'yma mashaqqat aro, Bobur, ko'ngul,
O'zni farog'at bila tutmoq kerak.
* * *

Ko'ngulga bo'ldi ajoyib balo qaro soching,
Shikasta ko'ngluma ermish qaro balo soching.
Boshing'a chiqti tutun rashk'din qora sochdin,
Ayoqqa tushgali, ey sarvi noz, to soching.
Muyassar o'ldi junun mulki, ey junun axli,
Nisori ashkni emdi bu kun mango soching!
Soching shikastida bordur shikasta ko'ngullar,
Ko'ngullar ochilur, ochilsa ul qaro soching.
Ochildi ko'ngli, chu ochting sochingni, Boburning,
Ne ayb, agar desa dilbandu dilkusho soching!
* * *

O'lturur garchi meni guftoring,
Tirguzur ul labi shakarboring.
Kuydurur xasratida meni, netay,
Otashin guldek iki ruhsoring.
Ey ko'ngul, yaxshi iki dunyodin
Bir nazar qilsa sanga dildoring!
Xor ko'rma g'amin ul o'yningkim,
Budurur furqatida g'amxoring.
Qildi to gul yuzida zohir xat,
Boburo, bo'ldi xati bezoring.
Xiradu sabr kelib albatta,
Ishqidin emdi meni qutqoring!
* * *

Olida go'yin ko'rung, ilgida chavgonin ko'rung,
Yuzida zulfi bila go'yi zanaxdonin ko'rung!
Sekretib yeldurganida tavsanig'a ko'z soling,
Yoyqolib yo'l yurusa, sarvi xiromonin ko'rung!
Ul pari maydon aro javlonda yuz ming noz ila,
Orqasinda yuz meningdek zoru hayronin ko'rung.
Ishqida jonni malomat o'qig'a qilmang hadaf,
Qoshining yosini ko'zlang, tiyri mujgonin ko'rung!
Derki, Bobur, iltifot aylay sanga yetgan zamon,
Menga yetgach, qoshida yuz chinu yolg'onin ko'rung.
* * *

Qaysi bir ozorin aytay jonima ag'yorning?
Qaysi bir og'ritqonin qo'nglumni dey dildorning?
Qaysi bir berahlig'ini tolei gumrohning?
Qaysi bir kajravlig'ini charxi kajraftorning?
Qaysi hasrat birla armonin vafosiz vaslning?
Qaysi mehnat birla ranjin furqati xunxorning?
G'urbat ichra, ey ko'ngul, eldin vafo istarni qo'y,
Chun vafosin ko'rmading hargiz diyoru yorning.
Bobur, ul gul javr etar, ag'yordin ne yaxshilig'?
Gulning ozori bu bo'lsa, vah, ne bo'lg'ay xorning?
* * *

Kimki, bo'lg'ay sen kibi olamda dildori aning,

Har qayon azm aylasa, bo'lg'ay Xudo yori aning!
Ko'yidin men azm etarmen - qolg'udektur xotirim,
Xotirimni saxlasa, Tengri nigahdori aning!
Keldim ersa, kelmadi hargiz aning ko'ngliga rahm,
Bordim, ammo bormadi ko'nglumdin ozori aning.
Ul quyoshdin ne asig' chekmak jafoyu javrkim,
Mayli yo'qtur zarraye mehru vafo sori aning.
Borg'ay erdim bosh ila ko'yiga, naylay, Boburo,
Har qachon borsam eshigiga, kelur ori aning.
* * *

Telba ko'nglumkim, sening changingdadur, yod aylagil,
Bir navozish birla ko'nglumni mening shod aylagil!
Ishrat ichra har qachonkim, chang olsang ilginga,
Furqatingda qolgon egri qomatim yod aylagil.
Soz aylab bir nishotangez chang, ey dilrabo,
Benavo ko'nglumni g'am changidin ozod aylagil.
Majlis ichra chang birla tortib ovoz, ey pari,
Sabru hushim juzvu avroqini barbod aylagil!
Changda har kun cholur yoring chu yo'qtur, Boburo,
Yerga bosh chalmoq bila o'zungni mu'tod aylagil
* * *

Ne fikrekim, sening fikring emas - ul fikr erur botil,
Ne umrekim, o'tar sensiz - erur ul umr behosil!
Taolalloh, ne ko'zu qoshdururkim, har qachon ko'rsam,
Gahi ko'nglum bo'lur bexud, gahi aqlim bo'lur zoyil.
Jafoyu javr tavridin erursen asru ko'p voqif,
Vafoyu mehr rasmidin bo'lursen asru ko'p g'ofil.
Quyosh yanglig' yuzungga mendururmen volayu hayron,
Yangi oydek qoshing'ga mendururmen oshiqu moyil.
Kechurdung oyu yilni mastu bexudluq bila, Bobur,
Necha g'aflat bila umr o'tkarursen, necha kun oyil!
* * *

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglumdin o'zga maxramy asror topmadim.
Jonimdek o'zga jonni dilafgor ko'rmadim,
Ko'nglim kibi ko'ngulni giriftor topmadim.
Usruk ko'ziga toki ko'ngul bo'ldi muftalo,
Hargiz bu telbani yana hushyor topmadim.
Nochor furqati bila xo'y etmisham, netay,
Chun vaslig'a o'zumni sazovor topmadim.
Bori boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngul,
Nechaki borib eshigiga bor topmadim.
Bobur, o'zungni o'rgatako'r yorsizki, men
Istab jahonni, muncha qilib, yor topmadim.
* * *

Sening ishqingda, ey nomehribon, bexonumon bo'ldum,
Demon bexonumon, ovorai ikki jahon bo'ldum.
Labing gar bermasa bo'sa, nechuk jon elta olg'ayman,
Bu yo'ldakim, adam sahrosig'a emdi ravon bo'ldum.
So'rub ul oy labidin, og'zining ramzini angladim,
Bir og'iz so'z bila, ko'runski, muncha xurdaton bo'ldum.
Nechakim, qoshi yolar ishqida tuzlukni ko'rsattim,
Vale oxir malomat o'qlarig'a-o'q nishon bo'ldum.
Kular erdim burun Farhodi miskin dostonig'a,
Bu Shirindurki, oning birla-o'q hamdoston bo'ldum.
Visoling davlatig'a yetmasam Bobur kibi, ne tong -
Ki, hajring mehnatida asru zoru notavon bo'ldum.
* * *

Xazon yafrog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim.
Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog'ing'ga tushub, bargi xazondek muncha yobordim.
Latofat gulshanida gul kibi sen sabzu xurram qol,
Men archi dahr bog'idin xazon yafrog'idek bordim.
Xazondek qon yoshim, sorig' yuzumdin el tanaffurda,
Ba har range, bihamdillah, ulusdin o'zni qutqordim.
Ne tole'dur mangakim, axtari baxtim topilmaydi,
Falak avroqini har nechakim daftardek axtardim.

Ulusning ta'nu ta'rifi manga, Bobur, barobardur,
Bu olamda o'zumni chun yamon-yaxshidin o'tkardim.
* * *

G'ayr toshi zaxmidin dardimni izhor etmadim,
Ichtagi pinhon g'amim toshtin namudor etmadim.
Qondin elga yoydi tifli ashk sirrimni mening,
Chunki men ul yoshni hargiz sohibasror etmadim.
Yuzi xurshidi, tishi durridin ayru jismda
Qolmadi bir zarra yerkim, tishdin afgor etmadim.
Kelmadi ko'nglumga ishqining sururu davlati,
To o'zumni mehnatu g'amg'a sazovor etmadim.
Toleimdin ne osig', Bobur, fiyunu nolakim,
Uyquluq baxtimni bu un birla bedor etmadim.
* * *

Oyog'in o'psam, yetishgay arsh tog'ig'a boshim,
Dast bergay davlatim, gar tutsa ilgim mahvashim.
Qo'ymog'umdur etaging ketsam ilikdin har necha,
Bormog'umdur ostoningdin agar borsa boshim.
O'tti el bo'lmoqdin ul yosh, men qarig'um ishqida,
O'lqanim yaxshi bu nav' ar o'tsa ellikdin yoshim.
Do'stlar, ko'nglumdagin qabrim toshig'a yozg'asiz,
Toki birdek bo'lg'ay ul oy ishqida ichu toshim.
Yor iti, qichqirma gar Bobur desa holin sanga,
Naylayin, bu g'urbat ichra sendin o'zga yo'q kishim.
* * *

Ne xush bo'lg'ayki, bir kun uyquluq baxtimni uyg'otsam,
Kechalar tori mo'yidek beliga chirmashib yotsam.
Gahi guldek yuzini ul shakar so'zlukning islasam,
Gahi shakkar kibi ul yuzi gulning la'lidin totsam.
Qani Shirin bila Layliki, sendin noz o'rgansa?
Qani Farhodu Majnunkim, alarg'a ishq o'rgatsam?!
Yoruuq kunduz, qorong'u kechada anjum kibi bo'lg'ay,
Chekib gar oh dudini, ko'ngul o'tini tutratsam.
Ko'zum ravshanlig'ida bo'lg'ay, ey Bobur, base kamlig',
Agar qoshi bila yuzin hilolu kunga o'xshatsam.
* * *

Hajr aro ishrat ayog'in bormu no'sh aylar chog'im,
Sensizni yurub ayoq ichkuncha sinsun oyog'im!
Ishq bemorimenu sen husnunga mag'ruru mast,
Men nechun bormay o'zumdinkim, dame yo'qtur sog'im.
Dog'lar qo'y dum diramlar kibi ko'ksumni yorib,
Ne osig'kim, yorg'a tushmas qabul ul yormog'im.
Dast bermas vaslu kelmas yoru rahm etmas, ne sud?
Bormog'im bo'g'zung'a eltib, bormog'im yorbormog'im.
Istaram, ey ishq, mendin qolmag'ay nomu nishon,
Tufrog et jismimni, dog'i yelga bergil tufrog'im!
Ko'zlarimdin borg'ali yoshim tanim bo'ldi nazor,
Bilmadim, ul yosh ekandur, Boburo, mening yog'im.
* * *

G'urbatu hijrong'a qoldim, oh, ul jon ilgidin,
Jong'a yettim emdi g'urbat birla hijron ilgidin.
Ko'rsatur gah tig'u gah o'q - holatimni bilmayin,
Ne balolar ko'radurmen yori nodon ilgidin.
El fig'onimdin bajonu men bu jondin, ey ajal,
Qil xalos elniyu meni jonu afg'on ilgidin.
Bobur, ul oy hajrida ishing base dushvor edi,
Shukrkim, qutqardi o'lum seni oson ilgidin.
* * *

Yana ko'z uyida ma'vo qilibsen,
Ko'ngul koshonasida jo qilibsen.
Yana savdoi zulfungdin, nigoro,
Meni oshuftayu shaydo qilibsen.
G'aming yo'q jon agar bersam g'amingda,
O'zungni muncha beparvo qilibsen?!
Qoshingdin meni o'qdek tashlar uchun,
Yangi oydek qoshingni yo qilibsen.
Ko'zumdin yoshunub, ey bahri altof,
Ko'zumning yoshini daryo qilibsen.

Sog'inmas jannat ul-ma'voni Bobur,
Aning ko'nglida to ma'vo qilibsen.

* * *

Ne vafo umrumda ul jonu jahondin ko'rgamen,
Kim vafo jondin ko'rubturkim, men ondin ko'rgamen?!
Ko'z yo'lidin ul pari husnin nazar aylar edim,
Qon yoshim ul yo'lni tutti, emdi qondin ko'rgamen?!
Yo Rab, ul kun shum tole'din manga bo'lg'aymukim,
Jonima orom ul oromijondin ko'rgamen?
Ko'z ko'rar, lekin solur meni balog'a bu ko'ngul,
Bu baloni necha chashmi xunfishondin ko'rgamen.
Bartaraf qilg'il vafo istarni eldin, Boburo,
Ul g'alatdurkim, vafo ahli jaxondin ko'rgamen.

* * *

Takalluf har necha suratda bo'lsa, ondin ortuqsen!
Seni jon derlar, ammo betakalluf jondin ortuqsen!
Parining husn ichra garchi oti benihoyatdur,
Meni devona qoshimda va lekin ondin ortuqsen!
Pari bu husn birla ko'rsa yuzungni, bo'lur telba,
Seni ta'rif etar, lekin sifat qilgondin ortuqsen!
Qadam ranjida qil ko'nglum uchun, ey yorning o'qi,
Mening bu notavon ko'nglumga chun darmondin ortuqsen!
Iqomat chunki qilding, Boburo, ul hur ko'yida,
Maqoming ravzadin avlo, o'zung rizvondin ortuqsen!

* * *

Bu yanglig' bilsam erdi hajrning muhlik qaro shomin,
Berurmu erdim o'lguncha ilikdin vasl ayyomin?!
Jahonda ayshu ishratdin ko'ngul orom topqaymu,
Kishi to ko'rmaguncha yonida mahvash diloromin?
Ko'ngulda hasrati ul oyning og'zining chu behaddur,
Ko'ngul go'yoki mundindur tutubtur g'uncha andomin.
Masih anfosi yanglig' jon berur farsuda jismimg'a,
Sabo keltursa nogah hajr aro ul yor payg'omin.
Muvofiq yorlar birla bu damni xush kechur, Bobur,
Na uchunkim, kelur damg'a bo'la olmas kishi zomin.

* * *

So'zlab ul la'li shakarxoni shakarrez etasen,
Ochib ul zulfi sumansoni dilovez etasen.
Gah qoshing sekretibu goh, ko'zung o'ynatib,
Ne balo fitna mening jonima angez etasen.
Suv kibi tig'ing chekib, tund samandingni minib,
Yeldurub har sorig'a, mening o'tum tez etasen.
Ko'zlaring hajrida bemormenu boqmaysen manga,
Meni og'riqqa magar yoqqali parhez etasen?
Hajr shomi mehnatidin qutula olmay chu sen,
Boburo, har nechakim o'zni saharxez etasen.

* * *

Xurshid yuzung birla bu kun, ey maxi tobon,
Da'vo gar etar bo'lg'usi kun, so'ngra pushaymon.
Sen gul kibi to g'amzadasen x,usnunga mag'rur,
Bulbul kibi men g'amzadamen husnunga hayron.
Gul yuzung erur lola, vale, lolai xudro'y,
Tor og'zing erur g'uncha, vale, g'unchai xandon.
Gohi qulog'ing to'lg'adi, gah yuzunga keldi,
Zulfungni yig'ishturki, base bo'ldi parishon.
Chun bo'ldi sochi torig'a jon rishtasi payvand,
Bobur, ko'ngul uzmaq sochidin emdi ne imkon?!

* * *

Qadu xating bila ko'zu yuzung, ey sarvi siymintan,
Biri sarvu biri rayhon, biri nargis, biri gulshan.
Hadisu la'lu raftoru jamolingdin erur har dam
Tilim go'yo, so'zum rangin, ko'shul xurram, ko'zum ravshan.
Meni madhushu miskin, naylay, ul sho'xi balo birla,
Men asru bedilu bexud, ul asru purdilu purfan.
Falak javru jafosidin, ul oy dardu balosidin
Chekarmen nolayu afg'on, qilurmen girayay shevan.
Balo ishqu yolg'uzluq, dag'i hijronu g'urbatda
Otim - Majnun, kishim - mehnat, ishim - zori, yerim - gulxan.

O'qung birla xayoling, dardingu mehringga Boburdek,
Tanim - manzil, ko'zum - maskan, ko'kus - ma'vo, ko'ngul - maxzan.

* * *

Ishq elining ohidin ul sarv qad xam bo'lmasun,
G'am yelidin ul muanbar zulf darham bo'lmasun.
Ko'p jafoyu javr ko'rduk, ey quyosh, hajring kuni,
Boshimizdin soyai sarvi qading kam bo'lmasun!
Dahri dundin tegmasun ozor nozik jismingga,
Dahr ahlidin muborak ko'nglungga g'am bo'lmasun.
Olam ahli birla olamdin manga sensen g'araz,
Zoti poking bo'lmasa, olamda odam bo'lmasun!
Gar havodorim erursan, ey sabo, arz aylakim,
Ul yuzi gul sarv har xas birla hamdam bo'lmasun.
Garchi oshiq lozimi olamda rasvoliqturur,
Ishq aro Bobur kibi rasvoi olam bo'lmasun!

* * *

Tushumda chun quyoshdek orazingni ko'rdum o'trudin,
Tilarmen to qiyomat ochmag'aymen ko'zni uyqudin.
Sening vaslingdin ayru tushgali borg'on sori ortar
Tahassur - orqadin, mehnat - yonimdin, hajr - o'trudin.
Ko'nguldin qatCh'i ummid ayladim ul vaqtkim, bildim,
Kesildi rishtai jondin, osildi tori gisudin.
Tiya olmon yig'ini ko'rgach ul yoshni, vale, ul ham
Ko'zum yoshini ko'rgach, asray olmas o'zni kulgudin.
Ko'zum yoshiki, yemruldi shikebu sabr uyi ondin,
Ziyonlar sanga, ey Bobur, bu yanglig' bilmadim sudin.

* * *

Quyoshim har sorig'a azm kilsa, zarraye qolmon,
Ne uchunkim, agar ayrilsam ondin, kun ko'ra olmon.
Oningdek bo'lmisham hayron quyosh yanglig' yuzungakim,
Quyoshdek nayzalar tegsa ko'zumga, ko'z ola olmon.
Agarchi yor ishki notavon ko'nglumga o't soldi,
Vale, men notavon ul yor ishqida ko'ngul solmon.
Ibodot vaqti bo'lsa, har necha mehrob o'trumda,
Qoshin naqshin tasavvur qilmag'uncha yerga bosh cholmon.
Iroqu Fors gar yetsa, sening bu she'ring, ey Bobur,
Ani hifz etgusi Hofiz, musallam tutqusi Salmon.

* * *

Mening qo'nglumni har dam og'ritib, parvoye qilmaysen,
Sen, ey bedard, naylaykim, ko'ngul dardini bilmaysen.
Ne bilgaysen mening dardu g'amim har soatu har dam -
Ki, husn usrukugidin oyu yil, ey oy, oyilmaysen.
Vafo maktubi birla g'amza o'qin hech yozmaysen,
Jafo rasmiyu javr oyinini hargiz yongilmaysen.
Qotilma, ishq eli holin chu bilmassen, manga, ey shayx,
Ne bilgaysenki, hargiz bu jamoatqa qotilmaysen.
Bo'lubtur ishqing ichra garchi xasdek jismi Boburning,
Vale, ne foydakim, xascha chog'liq ko'zga ilmaysen.

* * *

Jamoling vasfini, ey oy, necha eldin eshitgaymen,
Ne kun bo'lg'ay, visolingg'a meni dilxasta yetgaymen!
Tarahhum yuzidin yuzungni ko'rmakka buyurg'aysen,
Xush ulkim, orazingni ko'rgamen, so'zung eshitgaymen!
Itingdurmen, soching zanjirini bo'ynumg'a mahkam qil -
Ki, vodiya firoqing ichra qo'rqarmenki, yitgaymen.
Tarahhum qilmasang yo boqmay, istig'no bila o'tsang,
Tazarru' qilg'amen yo yig'lag'aymen - o'zga netgaymen?!
Muyassar bo'lmasa boshimni qo'ymog'lig' ayog'ig'a,
Boshimni olib, ey Bobur, ayoq yetgancha ketgaymen!

* * *

Bu kecha kulbang'a keldi ul quyoshim yoshurun,
Qarmlarda kelmadi hargiz muningdek kechqurun.
Og'zidek tor fursati vasli, vale, hajri tuni
Ul muanbar sochi yanglig' ham qorong'u, ham uzun.
To xayoli orazing tushti ko'ngulga, ey quyosh,
Bo'ldi ko'nglum bir yonar o'tu so'ngaklarim - o'tun.
Bo'ldi ko'nglumda girih hasrat o'ti tor og'zidin,
Bor magar jismim mening toru ko'ngul anda tugun.

Olg'ali jonimni hijrong'a havola qildi yor,
Qo'yma hijrong'a, ajal, jonimni ol, Tengri uchun!
Sarvdek qaddi firoqida fig'onimdur baland,
Gul kibi ruhsori hajrida yoshimdur lolagun.
Ishq ila devonalig'da bo'lmisham sohibkamol,
Ishq ahli, emdi Boburni degaysiz zufunun.
* * *

Shoxi gulu nastaran yod berur bo'yidin,
Atrni mushki Xo'tan kasb qilur mo'yidin.
Gul - yuzidin munfail, sarv - qaddidin xijil,
Rang olur muttasil lolayu gul ro'yidin.
Jong'a qilur yuz sitam, ko'ngluma yuz oncha ham,
Ko'z oqizur jo'yi g'am sho'xi balojo'yidin.
Ravzag'a gar yetgamen, onsiz ani netgamen?
Mumkin emas ketgamen ul qaro ko'z ko'yidin.
Garchi qilur yuz karam, vasli etar muhtaram,
Lek, base, qo'rqaram, Bobur, oning xo'yidin.
* * *

Qayong'a borsang, itingmen, o'zumni yetkuroyin,
Yetishmasam sanga, boqib duo qilib huroyin.
Yuzum bo'sag'ashta sursam - ne yaxshi ayshdurur,
Inoyat et, eshigingda bu ayshni suroyin.
Firoqing ichra yig'idin nechuk yig'ay o'zni,
Yoshim bosh urdi jahong'a, ne nav' yoshuroyin.
Necha tag'oful etib, menga boqmay yurar ul,
Necha tazarru' etib, men anga boqib turoyin.
Quyoshg'a zarra nazar solmag'ay sevunmakdin,
Qutulsa g'am tunidin, ko'rsa yona Bobur oyin.
* * *

Necha husn aholidin, mahzun ko'ngul, ozor topqaysen?
Necha gulchehralardin bag'ring ichra xor topqaysen?
Necha ishqu firoqu rahmsiz ag'yor ilgidin
O'zungni xoru jonni zoru ko'z xunbor topqaysen?
Necha maqdur borincha aning royicha borg'aysen?
Necha borg'on soyi o'zungni bemiqdor topqaysen?
Tanimg'a nechakim nazzora qilsang, dog' ko'rgaysen,
Ko'ngulda har nechakim istasang, ozor topqaysen.
Bu mahvashlarg'a ko'nglung bermag'ilkim, asray olmaslar,
Ko'ngulni asrag'il, bo'lg'ayki, bir dildor topqaysen.
* * *

Xating bila yuzungu kokulung sening, ey jon,
Biri - binafsha, biri - yosuman, biri - rayhon.
Takallum aylarida tiliyu tishiyu labi,
Biri - aqiqu biri - injuyu biri - marjon.
Ko'ngulni zoru meni xoru tanni tor etgan
Biri - jafoyu biri - g'urbatu biri - hijron.
Tanu ko'ngul bila ko'z vaslu nozu husni uchun
Biri - harobu biri - volayu biri - hayron.
Tamomi umrida Boburg'a uch so'z aytibtur:
Biri - so'kunchu biri - qattiqu biri - yolg'on.
* * *

Necha la'lingdin mening bag'rim to'la qon qilg'asen?
Xotirimni necha zulfungdek parishon qilg'asen?
Necha yetkurgaysen el boshini ko'kka mehr ila,
Necha meni javrdin yer birla yakson qilg'asen?
Ko'ngluma dashnomu ta'ning ulcha maqdur etgasen,
Jonima bedodu zulmung ulcha imkon qilg'asen.
Manga bormoq mushkilo kelmak sanga osondurur,
Ushbu mushkilni manga, yo Rab, sen oson qilg'asen.
Demagay axsant lafzin, Bobur, ul yoring sening,
Nechakim Hasson kibi o'zni suxandon qilg'asen.
* * *

Keldi ul vaqtiki, boshimni olib ketgaymen,
Olam ichra ayog'im yetganicha yetgaymen.
Istaram o'zni aziz elga ko'runmasliktin,
Necha o'zumni ulus ko'zida xor etgaymen?
Xalq yuz javr ila ishlar buyurur, kosh elning
Ne yuzin ko'rgamenu ne so'zin eshitgaymen!

Har sori borsa bu devona ko'ngul, ayb etma,
O'yla devona emaskim, ani berkitgaymen.
Dema Boburga netarsen, bosh olib ketmak ne?
Tengrining xosti mundoq esa, men netgaymen?
* * *

Bu g'amdamenki, ishim fikrini ne nav' etayin?
Ne yerda sokin o'lay, ne qilay, qayon ketayin?
Ne dayrdin eshigim ochilur, ne masjidtin,
Necha eshikdin eshikka gado kibi yetayin?
Jahon eli bila guftu shunud qilmasmen,
Necha so'zumni deyin, necha qattiq eshitayin?
Dema ne bo'ldi ishing, fikr qilg'il, ey Bobur,
Ne bo'lsa, ul bo'lur erkin ishim, ne fikr etayin?
* * *

G'ayrg'a necha vafo qilg'aysen?
Jonima necha jafo qilg'aysen?
Bexato elga otib g'amza o'qin,
Bizga yetganda xato qilg'aysen.
Ko'rmagaysen alamu dard yuzin,
Dardima, eyki, davu qilg'aysen!
Tilaram sarvi ravoning ravishin,
Tilagim, kosh, ravo qilg'aysen.
Bobur, ul umr seni so'kkan uchun,
Umr borincha duo qilg'aysen.
* * *

Sendin nafase murod topmon,
Ishqingda ko'ngulni shod topmon.
Ishq ahlig'a iltifot ko'rmon,
Husn ahliida e'tiqod topmon.
Qilsam sanga har necha tazallum,
Faryodu fig'onki, dod topmon!
Faryodki, derga ishq rozin,
Bir kishini e'timod topmon.
Qoshing g'ami sharhini yozarg'a
Ko'z qorasidek midod topmon.
Men banda juz inqiyod bilmon,
Sen shohda juz inod topmon.
* * *

Xush ulki, yona muborak yuzungni ko'rgaymen,
Yuzum bila qadaming gardini supurgaymen.
Demaki, javr kelur sanga yor ko'rmaktin,
Meni ne qo'rqtasen, har ne kelsa ko'rgaymen.
Gahi jafoyu gahi javr etib yuz evrulasen,
Men ul emonki, bular birla yuz evurgaymen.
Necha firoq xumori aro azob chekay,
Qachon visol mayidin dame usurgaymen?
Firoq o'tida ovunsam chog'ir bila, ne ajab,
Magar bu suv bila ul shuChblani o'churgaymen.
Demish meniki itim, XayrkuLPanda ko'rgumdur,
Necha bu va'da bila, Boburo, yugurgaymen.
* * *

Kelki, sensiz tobakay maqtuli hijron bo'lg'amen?
Choraye qilkim, sening o'llingda qurbon bo'lg'amen!
Ey xush ulkim, turg'asen kelib ko'zum o'trusida,
Men tikib ikki ko'zum yuzungga, hayron bo'lg'amen.
Necha sensiz dardu g'am bo'lg'ay mening ko'nglumda jam',
Necha zulfung ishtiyoqidin parishon bo'lg'amen?
Ko'yung ichra gar saqar bo'lsa, maqar jannatcha bor,
Jannat o'lsa gar makon, sensiz ne imkon bo'lg'amen?!
* * *

Bayaknogax. ko'zumga uchrab o'tru,
Meni devona qilding, ey pariro'.
Jahonda har kishiga bor murode,
Mening yo'qtur murodim sendin ayru.
Magar uyquda yuzush ko'rgay erdim,
Vale, xajringda ko'zdin uchi uyqu.
Iki soching bila yuzung quyoshin
Kechalar yod etarmen tongga tegru.

Tarahhum aylakim, bechora Bobur
Sening ishqingda bo'ldi zor asru.

* * *

Charxning men ko'rmagan javru jafosi qoldimu?!
Xasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qoldimu?!
Meni xor ettiyu qildi muddaiyni parvarish,
Daxri dunparvarning o'zga muddaosi qoldimu?
Meni o'lturdi jafoyu javr birla ul quyosh,
Emdi tirguzmak uchun mehru vafosi qoldimu?
Oshiq o'lg'ach, ko'rdum o'lumni o'zung'a, ey rafiq,
O'zga ko'nglumning bu olamda harosi qoldimu?!
Ey ko'ngul, gar Bobur ul olamni istar, qilma ayb,
Tengri uchun de, bu olamshshg safosi qoldimu?

* * *

To olg'ali ko'shlumni ul yuz bila ul gisu,
Kunduz manga ne orom, kecha menga ne uyqu!
Har yong'aki azm etsam, yonimda borur mehnat,
Har soriki yuzlansam, o'trumg'a kelur qayg'u.
Yuz javru sitam ko'rgan, ming mehnatu g'am ko'rgan,
Osoyishi kam ko'rgan mendek yana bir bormu?!
Ul yuzi quyosh qajri, bu sa'b balo dardi,
Ko'nglumga urubdur o't, holimni qilibdur su(v).
Har nechaki muhlikdur, dardingni dema elga -
Kim, yig'lamog'ing, Bobur, bu elgadurur kulgu.

* * *

Sochining savdosi tushti boshima boshtin yana,
Tiyra bo'ldi ro'zgorim ul qaro qoshtin yana.
Men xud ul tifli parivashg'a ko'ngul berdim vale,
Xonumonim nogahon buzulmag'ay boshtin yana.
Yuz yamonlig' ko'rub ondin, telba bo'ldung, ey ko'ngul,
Yaxshilig'ni ko'z tutareen ul parivashtin yana.
Tosh urar atfol meni, uyida forig' ul pari,
Telbalardek qichqirurmen har zamon toshtin yana.
Oyog'im yetganacha Boburdek ketar erdim, netay,
Sochining savdosi tushti boshima boshtin yana.

* * *

Ko'zumda muttasil ul egma qosh kerak bo'lsa,
Qoshimda ko'z yorug'i ul quyosh kerak bo'lsa.
Sujud vaqtida mehrob bo'lmasun hargiz -
Ki, bosh qo'yarda o'shal egma qosh kerak bo'lsa.
Habib ishqida boshdin kech, ey ko'ngul, yo'q esa
Bu yo'lg'a qo'yima oyoq sanga bosh kerak bo'lsa.
Qo'yub oyog'iga bosh, so'rsa la'lidin har kim,
Boshig'a tufroqu og'zig'a tosh, kerak bo'lsa!
Sening bila bori el noxush o'lsa, ey Bobur,
Ne bo'lg'usi sanga ul yori xush kerak bo'lsa?

* * *

Kim ko'rar xurshidni ul mohsiymo bo'lmasa?!
Kim so'rar shakkarni ul la'li shakarxo bo'lmasa?!
Gul tikandur ko'zlarimga ul yuzi guldin yiroq,
Sarv o'qtur bag'rima ul sarvi bolo bo'lmasa.
Jannat ul-ma'voni, ey zohid, netay men zorkim,
Istaram ko'yidin o'zga manga ma'vo bo'lmasa.
Tiymag'il devona ko'nglumniki, rasvo bo'lma deb,
Oshiq o'lg'aymu edi ul telba, rasvo bo'lmasa?!
Gar boshingni kessalar ishqida, ey Bobur, sening,
Yordin ko'nglung, kerakkim, o'zga katChbo bo'lmasa.

* * *

Jonima o't soldi ul ruhsorai zebo yana,
Ko'ngluma ul zulf bo'ldi moyai savdo yana.
Ko'rsatib ruhsoru zulfin ul paripaykar manga,
Jonu ko'nglumni qilibtur volayu shaydo yana.
Yor ko'yindagi tom sensen menga pushtu panoh,
Soyai lutfungni sol, chun sanga keldim to yana.
Shodlig'niyu farog'atni qo'yub, oshiq bo'lub,
Mehnatu g'amni qilib men o'zuma paydo yana.
Yorg'a qulmen degach, Boburni rasvo ayladi,
Tengri mendek bandasini qilmasun rasvo yana.

* * *

O'lum uyqusig'a borib, jahondin bo'ldum osuda,
Meni istasangiz, ey do'stlar, ko'rgaysiz uyquda.
Nekim taqdir bo'lsa, ul bo'lur tahqiq, bilgaysiz,
Erur jangu jadal, ranju riyoizat barcha behuda.
O'zungni shod tutqil, g'am yema dunyo uchun zinhor -
Ki, bir dam g'am yemakka arzimas dunyoi farsuda.
Zamona ahli ichra, ey ko'ngul, oyo tonilg'aymu
Seningdek dardpaymoyu meningdek dardpaymuda?
Ulusdin tinmadim umrumda hargiz lahzaye, Bobur,
Magar o'lsam bu olam ahlidin bo'lg'aymen osuda.

* * *

Xating aro uzoring sabza ichinda lola,
Ul chashmi purxumoring loladag'i g'azola.
Barcha parilar, ey jon, girdingda zoru hayron,
Go'yo erur namoyon oy tegrasida hola.
Mehru vafoni, ey yor, ko'p ko'rди sendin ag'yor,
Javru jafoni bisyor qilding manga havola.
Hajringda, ey pariro', ko'zumdin uchti uyqu,
H.ar kecha tongg'a tegru ishimdur ohu nola.
Yuz safhasinda xatlar yoshdinki, har taraf bor
Ishqingda Bobur aylar bu nav' yuz risola.

* * *

Hajr o'turdi meni, anglasam erdi muncha,
Do'stlar, yordin ayrilmas edim o'lguncha.
Zohido, do'zax o'tidin meni ne qo'rquyasen,
Hajr o'ti qoshida ko'rmasmen ani uchquncha.
Ul quyosh mehrini bir zarra manga ko'rguzmas,
Kavkabi ashk to'kub, bo'lsam agar garduncha.
Husnda ortuq agar bo'lsa yuzi Laylidin,
Men taqi bormen aning ishqida yuz Majnuncha!
Rindlar ollida hayvon suyini ko'p o'kasen,
Ey Xizr, bormu ekin ul suv mayi gulguncha?
Boburo, she'ringga gar solsa quloq ul shohing,
Bo'lg'usidur so'zunga qadr duri maknuncha.

* * *

Qoshiyu qaddiyu og'zin ul moh
Ko'rsatmasa manga, naylayin, oh!
Tutgum sochini yuzun ko'ray deb,
Tun uzunu men g'arib gumroh.
Qaddi bila ikki zulfu og'zi
Jonimg'a balo bo'lubtur, Olloh!
Xoh ista ko'ngulni, xoh qovla,
Chun sensen bu ko'ngulga dilxoh.
El bilmasa holatim, bilur yor,
Holimdin erur Xudoy ogoh.
Kobul sori gar azimat etsang,
Qurbon qilay o'zni sanga, ey shoh!
Bobur, yana o'tluq oh chekting,
Kuydurmasun elni oh nogoh!

* * *

Xating parvona kelturgach, tirildi ushbu devona,
Ani tirguzmak uchun go'iyoy kelturdi parvona.
Quyoshdek yuzungu durdek tishingning hajrida, ey jon,
Ko'zumning yoshidur yuz qatrayu har qatra - durdona.
Qading ko'rsatmading, bir tori sochingdin yubor pinhon,
Inoyat to'g'ri gar yo'qtur, ne bo'ldi bo'lsa to'lg'ona?
Aning usruk ko'zidin bordi chun dinim uyi barbod,
Menu, ey do'stlar, mundin nari may birla mayxona.
Jamoling sham'i hijronida Bobur o'rtanib bordi,
Qachon boshingdin evrulgay kelib parvonadek yona?

* * *

Bo'lmadim umrumda bir dam xotiri xurram bila,
Gar iliktin kelsa, bir damni kechurmang g'am bila.
Necha bo'lg'ay yor hijroniyu davron mehnati,
Naqdi umrum, ohkim, o'tti g'amu motam bila.
Zohir o'lg'ay har nafas bir tun sochingning hajrida
O'tluq ohim dud yanglig' chiqsa pechu xam bila.

Ey ko'ngul, tokim ko'rubmen ul paridin iltifot,
Ixtilot etmak manga yoqmas bani odam bila.
Qat' etib Bobur boridin chun sanga kelturdi yuz,
Bok emas yakro'y bo'lsa jumlai olam bila.
* * *

Necha rasvo bo'lg'amen ishq ichra shaydolog' bila?
Hech kishi ko'rmaydurur oshiq bu rasvolig' bila.
Har nechakim tuttum o'zni porsolig' tavrida,
Bo'ldum oxir shuhrai ofoq shaydolog' bila.
Menki hijroningda qon yutmoq bila mu'todmen,
Manga yo'qtur hech nisbat ayshu sahbolog' bila.
Shayx she'rim man' etar yetmay balog'at lutfig'a,
Naylagay, yo Rab, kishi bu piri nobolog' bila?!
Boburi bedilni ishq telbaratsa, ne ajab,
Chunki hargiz rost kelmas ishq donolog' bila.
* * *

Qachon bo'lg'ay musharraf bo'lg'amen, jono, jamolingg'a?
Qutulg'aymen firoqingdin, yetishgaymen visolingg'a!
Ko'z ochqil boqqalirim, bo'lmisham bemor ul ko'zdin,
Lab ochqil so'rg'alirim, tashna bo'lmishmen zulolingg'a.
Ul oyning yuzi birla to'sh bo'lub, da'voya husn etting,
Yaqin bo'ldi bu kunkim, ey quyosh, yetting zavolingg'a.
Kabutar, eltasen xatgam, ne bo'lg'ay gar qabul etsang,
Ko'ngulni bog'lasam ul noma yanglig' parru bolingg'a.
Belingdinkim, xayoledur, yiroqdurmen, meni yod et,
Umidim borki Boburdin yetishgaymen xayolingg'a.
* * *

Soqiy, erur ishrat chog'i, afsurda bo'lma day bila,
Uttek chog'ir keltur, dag'i suhbat tutoshur may bila.
Keltur sharobi nobni, omoda qil asbobni,
Xush tut shabi mahtobni, chun bordur ul oy bila.
Davron g'amin barbod qil, ishrat uyin obod qil,
Jonu ko'ngulni shod qil ovozi changu nay bila.
Majlisda bordur sarbasar may nash'asidin sho'ru shar,
Borini mastu bexabar qil jomi paydarpay bila.
Hamdard yore qonikim, bir g'amgusore qonikim,
Abri baqori qonikim, Bobur kibi yig'lay bila.
* * *

Ulki yillar-oylar o'tkargay g'amu motam bila,
Shodu xurram bo'lmag'ay Navro'z tega, bayram bila.
Ulki davronning ayog'idin damodam qon yutar,
Nash'a topmas, gar ichar har davr jomi Jam bila.
Dema, ey hamdam, diyoru yor so'zinkim, mening
Ulfatim yo'q olam ahli birla, bal olam bila.
Sendin ayru naylagaymen iyd ila Navro'zni,
Oyu yil xushtur sening birla agar bo'lsam bila.
Tortib afg'on, oh urub hijronda, Bobur, yig'lasang,
Navha tuzgay bazmi g'am ahli bu zeru bam bila.
* * *

G'urbatqa soldi charx meni yuz jafo bila,
Yod ayla men g'aribni gohi duo bila.
Behad vafoyu mehr sanga ko'rsatib edim,
Sen ham sog'ing'asen meni mehru vafo bila.
Chun qildi meni ul buti Chin zoru muftalo,
Insham mening qolibturur emdi Xudo bila.
Ko'rmon faraxni bir dam agar andin ayrumen,
Bilmon alamni, bormen aning birla to bila.
Ul sarvg'a karam qilibon yetkur, ey sabo,
Bobur niyozini yer o'pub xo'b ado bila.
* * *

Xush ulkim, yordin qat' aylabon tarki diyor etsa,
Jahon kezmak ila beqaydlig'ni ixtiyor etsa.
Aningdek bo'lsakim, aslo tafovut bo'lmasa paydo:
Agar bu dahri dun xor aylasa, gar e'tibor etsa!
Jafodur jong'a bo'lmog'lig' muqayyad olam ahlig'a,
Xush ul ozodakim, elning arosidin kanor etsa!
Kishining jonig'a dushman, balodur boshig'a bu el,
Agar boshin tufayl aylab va gar jonin nisor etsa!

Diyoru yordin Bobur jafoyu javr ko'p ko'rdi,
Xush ulkim, yordin qat' aylabon tarki diyor etsa.
* * *

Ulki, manga yori dilnavoz ko'rundi,
Javrmni ko'rsatti ko'pu oz ko'rundi.
Bo'ldi boshim past poybo'sida oxir,
Garchi burun asru sarafroz ko'rundi.
Sening uchun ulki, bosh o'ynamadi xech,
Sanga ajoyibki, ishqboz ko'rundi.
Ishq borida salohu tavbayu taqvo -
Borchasi, tahqiq bil, majoz ko'rundi.
Dushmani jon o'ldi, ne qilay, sanga, Bobur,
Ulki, manga yori dilnavoz ko'rundi.
* * *

Ne chamanda sarv bor ul qomati ra'no kibi,
Ne guliston ichra gul bor ul ruhi zebo kibi.
Ne jafu tavrada bor dunyoda ul bemehrdek,
Ne vafo bobida bor olamda men shaydo kibi.
Donai xoli Masihoso labining ustida,
Notavon jonimg'a bo'ldi moyai savdo kibi.
Aylasam ko'yida ma'vo, naylayin jannatnikim,
Bor manga ul xur ko'yi jannat ul-ma'vo kibi.
Bazm aro, ey do'stlar, ne mayki, qon ichmakdurur,
Soqiye gar bo'lmasa ul sho'xi bazmoro kibi.
Minsa abrash ul quyosh kuymay netaykim, Boburo,
Meni kuydurmakka yeldur markab, o'tdur rokibi.
* * *

Qadi shoxi guldek nigorim qani?
Labi g'unchadek gul'uzorim qani?
Ne tong, yuz nigor o'lsa qon yosh bila -
Ki, ul yuzi gul yosh nigorim qani?
Qaro kechalarda ko'zum yorutur,
Ushal sham'i shabhoi torim qani?
Yarim kechalar kelur erdi burun,
Bu tun kelmadi, oh, yorim qani?
Demang, tarki ishqini qil ixtiyor,
Bu ishda mening ixtiyorim qani?
Firoqingda ko'nglumni qon aylasang,
Sanga bo'lg'ay ul beqarorim qani?
* * *

Shomi hijronin manga ul bevafo ko'rsatmagay,
Hajr shomi asru muhliktur, Xudo ko'rsatmagay!
Va'da aylab vasl, ko'rsatgay necha jonimg'a hajr,
Necha ko'nglumg'a jafu qilg'ay, vafo ko'rsatmagay.
Ul qaro ko'z hajrida tunde qarordi kunduzum,
Yo Rab, andoq kunni ul ko'zi qaro ko'rsatmagay!
Ochmag'ay ko'zini to so'kmakka og'zin ochmag'ay,
Yuzini ko'rsatmagay to yuz jafu ko'rsatmagay.
Ishq istar bo'lsa, Majnun aylagay payravlig'im,
Yo'lni ne bilgay kishi to rahnamo ko'rsatmagay.
Uchqudekdur jon qushi hijronda Bobur ohidin,
Kel pari ta'jil ila jonim havu ko'rsatmagay.
* * *

Yuz qo'rsatib, o'lturursen, ey oy,
Yo'q sen kibi xudnamoyu xudroy.
Qadding "alif"u qoshing erur yo",
Desam ne ajab agar seni oy?
Ham lola yuzung qoshida berang,
Ham sarv qading borida bepoy.
O'qung yuragimda jo qilibtur,
Tortib yana, o'qni qilma bejoy.
Sendin manga yuz xazor xasrat,
Sendin manga bormu hech parvoy?
Ul yor agar yoshursa yuz, ox,,
Ag'yorg'a gar ko'runsa - yuz voy!
Kulmas manga subhi vasl, Bobur,
Har nechaki shomi hajr yig'loy.
* * *

G'unchadek ko'nglum mening gulzor mayli qilmag'ay,
G'am bila butgan ko'ngul gulgasht ila ochilmag'ay.
Ranga-ranga gullaringni, bog'bon, arz etmakim,
Tah-bataq qonlig' ko'ngul gul orzusini qilmag'ay.
Yo'qtur ulkim, gul yuzungdin ayru boqsam gul sari,
G'uncha yanglig' ko'nglumga yuz xori g'am sanchilmag'ay.
Orazu qaddingni ta'rif etsalar yuz yil, hanuz,
Ey yuzi gul, sarvqad, yuzdin biri aytilmag'ay.
Sendin ayrildim esa bo'ldi nasibim xori g'am,
Sendin, ey gul, emdi Bobur bir zamon ayrilmag'ay.
* * *

Gahi sog'in, ne bo'ldi, zorlarni,
Unugmag'il burung'i yorlarni.
Seni ko'rmay, yirokdin zor bo'ldim,
Biror yod et yiroqdin zorlarni.
Yuzungdin ayru men xor, ey azizim,
Kishi guldin ayirmas xorlarni.
Ko'zung bemorimen, mendin yumub ko'z,
Yana og'ritmag'il bemorlarni.
Sanga bir yo'l yetar fikridadurmen,
Unutma bir yo'li afgorlarni.
Sanga ko'nglumni oldurdum, jahonda
Ko'rubmen garchi ko'p dildorlarni.
Sihi qadlarg'a, Bobur, oshiq o'lsang,
Burunroq ko'zlagaysen dorlarni.
* * *

Yo qoshing yanglig' egilgan jismi zorimnimu dey?
Yo sochingdek tiyra bo'lgon ro'zgorimnimu dey?
Kunduz o'lsa, tungacha aytaymu bepoyon g'amim,
Kecha bo'lsa, tongg'a tegru holi zorimnimu dey?
Hajri qotil birla ko'nglum holatinmu sharh etay,
Dardi muhlik ichra joni beqarorimnimu dey?
Telbayu madhushu bexud dema kim qildi seni,
La'li maygun, so'zi mulk, o'zi xumorimnimu dey?
Bobur, ul oyni qiyoshdek orazi hijronida
Tongg'a tegru har kecha yulduz sanorimnimu dey?
* * *

Ul ahd ila paymon qani, ey yor, ne bo'ldi?
Ul lutf ila ehson qani, ey yor, ne bo'ldi?
Kettim meni hayron eshigingdin, demading hech:
Ul telbai hayron qani, ey yor, ne bo'ldi?
Yuz ko'rsatibon el ichida lutf etar erding,
Ul lutfi namoyon qani, ey yor, ne bo'ldi?
Sening sari bordi ko'ngul istab topa olmon,
Sening sari borgon qani, ey yor, ne bo'ldi?
Jonimg'a davo so'zung edi, so'zlamading, oh,
Jon dardig'a darmon qani, ey yor, ne bo'ldi?
Mundoqmu edi ahdki, Boburni unuttung,
Ul ahd ila paymon qani, ey yor, ne bo'ldi?
* * *

Zuhd ketti esa, karam qildi,
Ishq keldi-yu, muhtaram qildi.
Ul alif bo'yluq oyni ishqi
Meni olam aro alam qildi.
Ko'ziyu zulfu og'zi furqatida
Falak oxir meni adam qildi.
Ko'nglum o'rtandi har dam ohimdin,
Magar ul yel bu o'tni dam qildi?
Qoshi yolar jafosidin bu charx
Mening otimg'a-o'q raqam qildi.
Changi g'amdin qutulmadi Bobur,
Nechakim, nola zeru bam qildi.
* * *

Ko'rmagay erdim jamoli olamoro koshki,
Bo'lmag'ay erdim bori olamg'a rasvo koshki.
Ishq bog'ining niholi - g'am, bari - hirmon emish,
Qilmag'ay erdim bu gulshanni tamosho koshki.
Qilmag'ay erdi ko'ngul ishqin havas, bal, tilga ham

Kechmagay erdi aningdek lafz aslo koshki.
Qoshi yolar ko'yida umri sharif etguncha sarf,
Qilg'ay erdim masjidu mehrob aro jo koshki.
Ixtiyor et o'zga ish, Boburki, hosil bo'lmag'ay
Ishqu vaslu aysh ila ishratgin illo koshki.

* * *

Yoz bo'ldi-yu, bo'ldi yana jannat kibi yozi,
Xush ul kishikim, aysh ila o'gtay qishu yozi.
Dutora uni ayshu farog'atni berur yod,
Mutribqa quloq tutki, ne der nag'mada sozi.
Chun qiblam erur yor - qilay qoshida sajda,
Nosih so'zini naylay, emas so'zi namozi.
Bu telbayu madhush dilu jong'a ne xushtur,
Gah qahru itobi bila, gah ishvayu nozi.
Tut mug'tanam ul yorni, Boburki, jahonda
Mahmud kim erdi, ne kishi erdi Ayozi?

* * *

Demang o'qini tanimg'a baloi jon keldi,
Hayotsiz badanimg'a o'qi ravon keldi.
Hayot suyini qo'ykim, labidin oldim kom,
Bor, ey Xizrki, manga umri jovidon keldi.
Sipexri ko'yini ko'k evrurur kelib har kun,
Ne yerdurur buki, rafCHattin osmon keldi.
Xush ulki, bir kishi ko'zum yo'lida erkanda,
"Sevinchi!" - deb yugurub yetsakim: "Falon keldi!"
Firoq aro o'larimda yetishti ul jonon,
Xudog'a shukr qilaykim, o'lar zamon keldi.
Adam yo'lig'a ko'ngul kirdi ishq dog'i bila,
Bu yo'ldin o'tmadi har kimki, benishon keldi.
Farog'at istar esang, bo'l jarida, ey Bobur -
Ki, jonu tang'a g'amu g'ussa xonumon keldi.

* * *

Boshda gar yo'qtur jalolat gavharidin afsare,
Yonima basdur mazallat tufrog'idin bistare.
Kirgali ko'ksun aro ko'nglum ishi kuymakdurur,
Men nechuk kuymayki, ko'ksun ichra bordur axgare.
Sabru x,ushu aklu dinimni olibtur, naylayin,
Sarvqadde, gulruhe, rayhonxate, nasrinbare.
Kirpidek xanjarin el ko'ksiga ko'rgan zamon,
Ko'zuma har kiprikin, yo Rabki, qilg'il xanjare!
Abrashini yeldurub yetgach yiqildim, do'stlar,
Oxkim, umrum daraxtini yiqitti sarsare.
Ganji husnida ko'rung zulfi bila gulgunasin,
Go'iyoy o't soldi har yon ganj uzra ajdare.
Hajr shomidin mening qon yutmog'imni yod eting,
Cheksangiz ul nozanin birla sabuxiy sog'are.
Har nechuktur umrni, Bobur, xush o'tkarmak kerak -
Kim, bu besh kun umr g'amgin bo'lg'ali qilmas gari.

* * *

Bihamdullahki, ul gulda vafodin bor emish bo'e,
Jafo tarkin qilur ermish yana turki jafojo'e.
Qadam ranja qilib, boshing'a kelgaymu debon ul oy,
Tutubmen poyi devori, qilib maskan sari ko'yi.
Soching belingcha-yu, beling dog'i soching kibi borik,
Latofat ichra yo'q farqi bu ikkining sari mo'yi.
Muyassar bo'lsa, bilgilkim, bori olamdin ortuqdur
Kabobiyu mayi nobiyu mahtobiyu mahro'yi.
Eshittim, iltifot aylab demishsen: "Kimdurur Bobur?"
Faqire, nomurode, besarupoye, duogo'e.

* * *

Tuno kun birla bu tun majlisi asru xush edi,
Majlis ahli bori dilxohu bori dilkash edi.
Borining so'zi edi xo'bu latifu rangin,
Ne parishonu ne bema'niyu ne chirmash edi.
Yaxshi may yo'q edi-yu, nash'ai may yaxshi edi,
Noxush el yo'q edi-yu, asru xavoi xush edi.
Bori ahbob edi xozir, bori asbob edi jam',
Sozu xonanda bila nuqlu mayi beg'ash edi.

Goq purxanda edi el, base, sarxushluqtin,
Mastlig'din yana gox, el ko'zi to'la yosh edi.
Barcha ta'zim qilib bir-birini mastona,
Goh boshta oyoq erdi, gox. oyoqta bosh edi.
Tun yarimig'acha bu nav' edi-yu, ondind so'ng
Majlis ahlining ishi har sorig'a tarqash edi.
Men ilikdin borib erdim, tutub ilgimni birov -
Meni uyg'otdi, ko'z ochtim esa, ul maxvash edi.
Tortib ilgini, quchub bo'ynini, og'zini o'pub,
Tongg'acha o'ynamoq ish erdi, ne xush o'ynash edi.
Bobur ar harza dedi, majlis eli, ayb etmang,
Karam aylang, ani ma'zur tutung, sarxush edi.

* * *

Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suxbati,
She'r baxsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.
Yoz faslida chog'ir ichmakning o'zga holi bor,
Kimga bu nash'a muyassar bo'lsa, bordur davlati.
Ishq dardini chekib, har kimki topsa vasli yor,
Ul zamon bo'lg'ay unut yuz yilg'i hijron shiddati.
Do'stlarning suxbatida ne xush o'lg'ay baxsi she'r,
To bilingay har kishining tab'i birla holati.
Gar bu uch ishni muvofiq topsang ul uch vaqt ila,
Mundin ortuq bo'lmag'ay, Bobur, jahonning ishrati.

* * *

Shukrilillah, aysh yuzlandi-yu, mehnat qolmadi,
Yetti ayyomi visolu shomi furqat qolmadi.
Yuzlanib amnu farog'at, g'ussayu g'am bo'ldi daf,
Ayshu ishrat keldi-yu, ranju mashaqqat qolmadi.
Mehnati hijronki, ondind chok-chok erdi ko'ngul,
Bo'ldi rohatqa mubaddal, ul jarohat qolmadi.
Murtafe' bo'lgonda hijron, kel, tavaqquf qilmakim,
Intizoringni chekarga o'zga toqat qolmadi.
Vaslinga yetkurdi davron oqibat Boburni, shukr,
Emdi davrondin manga aslo shikoyat qolmadi.

* * *

Yana bir ko'z g'amidin xayeta ko'rarmen o'zni,
Yana bir zulf'ga vobasta ko'rarmen o'zni.
Labining xasratida zor toparmen jonni,
Ko'zining furqatida xasta ko'rarmen o'zni.
Ko'zidin ul krshi yo garchi meni soldi yiroq,
Lek, ul oy qoshida payvasta ko'rarmen o'zni.
Zulfi zanjirig'a to bo'ldi ko'ngul vobasta,
Shukr, Bobur kibi vorasta ko'rarmen o'zni.

* * *

Chamanda sarvni o'lturg'uzubturur yurushi,
Qiyomate qo'poribtur ot uzra o'lturushi.
Meni shikastani qistab, qo'ngulni g'uncha qilur,
Qoshini chetmog'i birla tor og'zini burushi.
So'rub g'amimni, taajjub qilib, labin tishlar,
Ne xushturur menga irnini tishlabon so'rushi.
Turar raqib chiroyin tursh qilib doim,
Tili chuchuk sanamim, yaxshidurmu bu turushi?
Ko'rar raqibni doim, xayol etar meni g'ayr,
Ne aylagay anga Boburki, g'ayrdur ko'rushi.

* * *

Habib bo'lsa edi, yo raqib o'lsa edi,
Raqib o'lsa edi, yo habib bo'lsa edi.
Ko'ngulga mehnatu g'am har ne bo'lsa, bo'lsa edi
Ki, yorga qotilib, g'ayrdin qutulsa edi.
Firoq shaxrida bo'lg'uncha, kosh ko'yingda
Tanim so'ngak bo'lubon, so'ngakim o'kulsa edi.

* * *

Ulki, yuz Laylivash oning ishqidin Majnundurur,
Xo'blar sultoni Mirzo Qosimi Arg'undurur.
Tiyrboronidin ul chobukning, ey ko'ngul, ne bok?
Garchi behad tezdur, yuz shukrkim, o'tkundurur.
Zuhd sahrosig'a tushtum ishq yo'lidin ozib,
Boburi gumraxni emdi kim bu yo'lg'a ko'ndurur?

Ruboiylar

Jono, bitigingki, bo'ldi marqum manga,
Mehnat bila g'amni qildi ma'dum manga.
Ko'rgach ani garchi shod behad bo'ldum,
Mazmuni, vale, bo'lmadi ma'lum manga.
* * *

Ne ishratu aysh uchun mayi nob manga,
Ne toat uchun go'shai mehrob manga,
Ne fisq qilurg'a bordur asbob manga,
Ne zohid o'lurg'a toqatu tob manga.
* * *

To bo'lg'ali dildor o'shal oy manga,
Holimni bilib, qilmadi parvoy manga.
Men asru harobu yor ko'p mustag'niy,
Ey voy manga, voy manga, voy manga!
* * *

Xush ulki, ko'zum tushti sening ko'zushta,
Bevosita holimni desam o'zungga,
Bermay so'zuma javob achig'lanasen,
Qilding meni muhtoj chuchuk so'zungga.
* * *

Asru ko'p emish jur'atu ximmat sizga,
Ro'ziy qilg'ay Xudoy nusrat sizga.
Mardonalig'ingizni bori el bildi,
Rahmat sizga, hazor rahmat sizga!
* * *

To qildi meni firoq aro yod habib,
Mahjur ko'ngulni ayladi shod habib.
Gar vasl muyassar o'lmasa, netay, ey Bobur,
Faryod habibu ohu faryod habib!
* * *

Ey qomati sarvu lablari obi hayot,
Budur tilagimki, - yetkamen vaslingga bot!
Hajringda manga ne sabr qoldi, ne sabot,
Yo kel bu sorig'a yo meni o'zungga qot!
* * *

Bu qoziyi fosiqki, yibordim sanga bot,
Sen dog'i uzatqil botu ham badraqa qot!
Gar xotiring istasa yiborgil savg'ot:
Ma'junu sharobu obi noranju nabot.
* * *

Keldi ramazonu men taqi bodaparast,
Iyd o'ldi-yu, zikri, may qilurmen payvast.
Ne ro'zayu ne namoz yillar, oylar;
Tun-kun mayu ma'jun bila devonayu mast.
* * *

Bo'ldum meni oshuftai hayron mardud,
Qilg'il madadeki, bo'ldi imkon nobud.
Dunyo bila uqboda ruju'um sangadur,
Ey ikki jahonni shahi Sulton Mahmud!
* * *

Mutribki, unini har kishi go'sh qilur,
Jon birla ko'ngulni zoru madhush qilur.
Maqsud nedurki, elni yod etganda,
Ul doirada bizni faromush qilur?
* * *

Dushmanniki, bu dahr zabardast qilur,
Naxvat mayidin bir necha kun mast qilur.
G'am yemaki, yetkursu boshini ko'kka,
Oxir yana yer kibi oni past qilur.
* * *

Ko'zung bori sog'larni mast etgusidur,
G'amzang bori mastlarni past etgusidur.
Ko'p zohidu porsoni Bobur yanglig'
La'ling xavasi bodaparast etgusidur.
* * *

Ishlar bori ko'nguldagidek bo'lg'usidur!
In'omu vazifa - bori buyrulg'usidur!

Ul g'allayu muxmalki, deb erding, berdim,
Muhmalg'a bo'yu g'alladin uy to'lg'usidur!
* * *

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur!
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur!
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonliq hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur!
* * *

Bu telba ko'ngulki, ishq aning sudidur,
Ahhobning ixtiloti maqsudidur.
Hijron chekib, ahbobni har kimki ko'rar,
Xush davlatiyu tolei mas'udidur.
* * *

Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,
G'urbat bu aziz umrni kam qiladur.
Ne nav' bitay firoqu g'urbat sharhin -
Kim, ko'z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.
* * *

Jismimda isitma kunda maqkam bo'ladur,
Ko'zdin uchadur uyqu chu axsham bo'ladur.
Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek,
Borgon sori bu ortadur, ul kam bo'ladur.
* * *

Yo Rab, menda ne yaxshi tole' bordur -
Kim, baxti muti'yu yori tobe' bordur.
Ma'zur tut ar vaslingga kechroq yetsam,
Ne chora qilay, ozg'ina mone' bordur.
* * *

Xotirni bahor faslida gasht oladur,
Ko'z nurini rangi lolayu dasht oladur.
Xush ulki, tolalarda yurub sayr etsa,
Bu fasldakim, latifu dilkash toladur!
* * *

Eykim, quyosh ul yuzung, hilol ul qoshtur!
Po'loddurur ko'nglushtu bag'ring toshtur!
Nomamg'a agar yaxshi javobing yo'qtur,
So'kmak bila yod aylasang xam xushtur!
* * *

Hajri aro oromu qarorim yo'qtur,
Vaslig'a yetarga ixtiyorim yo'qtur.
Kimga ochayin rozki, yo'q maxrami roz,
G'am kimga deyinki, g'amgusorim yo'qtur.
* * *

Ulkim, anga ilm ichra g'olib yo'qtur,
Derlarki, beri kelurg'a rog'ib yo'qtur.
Dedimki, bu so'z rost emastur, negakim,
Tolibni tilar andaki, tolib yo'qtur.
* * *

Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!
Sarrishtai ayshdin ko'ngulni zinhor
Uz, oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!
* * *

Qayg'ungni cheka-cheka qoribtur Bobur,
Rahm aylaki, o'zidin boribtur Bobur.
Noranj yibordi yeengaki, bilgaysen,
Ya'niki, bu nav' sargoribtur Bobur.
* * *

Bobur, necha bu dahr meni zor aylar,
Sabrimni kamu g'amimni bisyor aylar.
To dahrdurur, budur aning rasmikim,
Oyrib kishini azizidin xor aylar.
* * *

Qish bo'ldi-yu, bo'ldi borcha tomu tosh qor,
Jam'iyati bor kishiga bordur xush qor.
Bu qishda yomon yo'lu parishon holim,
Yo Rab, meni yaxshilig' sori boshqor!
* * *

Arbobi hasad so'ziga buttung o'xshar,
Begonalig' atvorini tuttung o'xshar.
Bir dog'i sog'inmading bu fursatta meni,
Men xastani, ey yor, unuttung o'xshar.
* * *

Vaslingga ko'ngul qiyossiz tolibtur,
Hajring aro ixtiyorsiz qolibtur.
Mushtoqlig'im sharhini dey olmasmen,
Diydoringa ishtiyiq ko'p golibtur.
* * *

Ey bodi sabo, ayla Xurosong'a guzar,
Mendin degil ul yori parishong'a xabar.
Necha safar o'z ko'nglung uchun qilg'aysen,
Emdi bizing uchun ayla bu yong'a safar.
* * *

Ko'pdin berikim, yoru diyorim yo'qtur,
Bir lahzayu bir nafas qarorim yo'qtur.
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.
* * *

Qish garchi zamoni manqalu otashtur,
Lekin bu shito Hindta ko'p dilkashtur.
Hangomi nishotu bodai beg'ashtur,
May bo'lmasa, ma'jun dog'i bo'lsa xushtur.
* * *

Ahbobki, bazmida guliston xastur,
Yo'q lek alar bazmida bizga dastur.
Gar sizda hzur birla jam'iyat bor,
Yuz shukr, bu jam' behuzur ermastur.
* * *

Yuz shukr de, Boburki, karimi G'affor,
Berdi sanga Sindu Hindu mulki bisyor.
Issiklig'ig'a gar senga yo'qtur toqat,
Sovuq yuzini ko'ray desang, G'azni bor.
* * *

Ko'nglumda o'tu ikki ko'zumda sudur,
Men xastag'a rahm qilki, holim budur.
G'am kunduziyu firoq shomi yanglig',
Tun-kun menga ne qaroru ne uyqudur.
* * *

Bu yog'lig'kim, "Bog'i jahon" chog'liqdur,
Jon rishtasi har rishtasig'a bog'liqdur.
Tan tori yuzum oltunidektur sensiz,
Ko'r ul ikkidin namuna bu yog'liqdur.
* * *

Jismimda isitma tobidin otashdur,
Jonimg'a baloyu g'ussa bebarkashdur.
Ko'p dard ila g'amdin manga noxushluq edi,
Sen so'rg'ali, ey habib, ko'nglum xushdur.
* * *

Devonima ne rabtu ne tartibdurur,
Ne jadvalu ne lavhu ne tazhibdurur.
Gar sanga yibordim ani, ayb aylamakim,
Devoningni tilarga taqribdurur.
* * *

Ey qo'rg'on eli, qoldimu darmonlaringiz?
Chiqmay, nedurur bu jaxl qilgonlaringiz?
Jondek kishilar ochlig'idin chun chiqadur,
Siz chiqmasangiz - chiqsa kerak jonlaringiz!
* * *

Ahbob, yig'ilmoqni farog'at tutungiz!
Jam'iyatingiz borini davlat tutungiz!
Chun gardishi charx budurur, Tengri uchun,
Bir-birni necha kuni g'animat tutungiz!
* * *

Hajring g'amidin oqibat o'lgum, qaro ko'z,
Yuz g'ussayu andux. ila borgum, qaro ko'z.
Vasling bila qilmading ilojin, Bobur,

Mushkilki, firoqingda tirilgum, qaro ko'z.

* * *

Ozor ila necha guftugo' qilg'aysiz?

Ozurda bo'lurni justujo' qilg'aysiz.

Munchaki, ko'ngullarga yetishti ozor,

May birla magarki shustusho' qilg'aysiz?

* * *

Hammomki, to maskani jonona emish,

Anda parilar husnig'a devona emish.

Ul xud paridur, borcha mulozimlari ham,

Alqissaki, hammom parixona emish!

* * *

Husn axlig'a zoru muftalo ko'z ermish,

Jonim bila ko'nglumga balo ko'z ermish.

Faxm ayladim emdi, Boburo, ishq ichra

Ko'zumni qorortqon qaro ko'z ermish.

* * *

Qar hazki, xaloyiq andin ayrilmas emish,

Ul haz mazasiyu qadrini bilmas emish.

Ma'junu basitu bo'zayu luteki,

Bir jur'a chogar durdi ishin qilmas emish.

* * *

Bu xasta ko'ngul erdi visoling bila xush,

Jonim ham erur sening jamoling bila xush.

Hijron g'ami garchi asru noxushtur, lek,

Fikring bila shodmen, xayoling bila - xush.

* * *

Chun bordi Xudoy rahmatig'a ul yosh,

Ne foyda to'kmak g'ami hijronida yosh.

Ul yosh g'ami hijronida ko'p yosh to'ktung,

Bir yoshing uchun Xudoy bersun yuz yosh!

* * *

Gar vodiya xajring aro bo'ldum noqis,

Ayb aylamakim, xrdisedur xodis.

Qavmi ajabe chog'irg'a qildi targ'ib,

Amri ajabe xajrg'a bo'ldi bois.

* * *

Eykim, bori she'r ahlig'a sen xon yanglig'!

She'ring bori she'rlarga sulton yanglig'!

Mazmuni aning xatti savodiy ichra,

Zulmat arosida obi qayvon yanglig'!

* * *

Ne yor vafo qilg'usi oxir, ne harif,

Ne sayfu shito qolg'usi boqiy, ne harif,

Yuz xayfki, zoye' o'tadur umri aziz,

Afsuski, botil boradur umri sharif.

* * *

Andin berikim, qasdim uchun turdi firoq,

Yuz dardu alamni manga yetkurdi firoq,

Meni eshikingdin, netayin, surdi firoq,

Qil chora, yo'q ersa meni o'lturdi firoq.

* * *

May tarkini qilg'ali erurmen g'amliq,

Bor tiyra ko'ngulga har zamon darhamliq.

G'am birla fasurdaliq xalok etti meni,

May birla emish shodlig'u xurramliq.

* * *

Oludai yuz tuman maosiy bo'lmoq,

Yuz ranju tuman azob xosi bo'lmoq.

Ko'p yaxshi ekin ax,li xiradning qoshida -

Kim, og'ritibon atoni osiy bo'lmoq.

* * *

Kim yor anga ilm, tolibi ilm kerak,

O'rgangali ilm tolibi ilm kerak!

Men tolibi ilmu tolibi ilme yo'q,

Men bormen ilm tolibi - ilm kerak.

* * *

Yuzung bila lablaring erur gul, muldek,

Balkim, yuzung olida erur gul quldek.
Bobur kibi ishqdin dam urmaydur edim,
Ey gul, meni ishqing ayladi bulbuldek.
* * *

Boburni burun mahrami asror etting,
Vaslingg'a berib yo'l, o'zunga yor etting,
Oxir bording, dog'i oni zor etting,
Hijron alami birla giriftor etting.
* * *

Lutf ettingu ko'ngul bila jon o'rgatting,
Vasling bila, ey jonu jahon, o'rgatting.
Bu qotla yomonroq o'lsa holim sensiz,
Ayb aylamagaysenki, yomon o'rgatting.
* * *

Xatting bila ko'nglakingki, irsol etting,
Qayg'u bila mehnatimni pomol etting.
Ul xat bila xotirimni xursand aylab,
Bu ko'nglak ila ko'ngulni xushhol etting.
* * *

Ko'z sham'ini yorutqali maxvash kelding,
Sabr uyini kuydurg'ali otash kelding,
Qilding meni kelganing bila minnatdor,
Rahmat senga, yaxshi keldingu xush kelding!
* * *

Sensiz necha g'am birla malole ko'raling,
Hajring necha bo'lg'usi, visole ko'raling.
Hajringda necha xayol ila o'tkaraling,
Lutf ayla-yu kelgilki, jamole ko'raling!
* * *

Eykim, yasabon yuzungni xurshid etting,
Furqat alamini jonga jovid etting.
Men seni dedim, sen o'zgani qilding yod,
Navmid o'lg'il, chun meni navmid etting.
* * *

Yotlarni, kerakki, oshno kam qilsang,
Har kimki vafo qilsa, jafo kam qilsang.
Navmid bo'lur borcha vafodorlaring
Gar shoh nazaring birla vafo kam qilsang.
* * *

Hijron aro yod etib, meni shod etting,
Mahjur ko'ngulni g'amdin ozod etting.
Ne lutf edi, dey, huri parizod etting,
Go'yoki buzuq Ka'bani obod etting!
* * *

Har yerdaki gul bo'lsa, tikon bo'lsa, ne tong?!
Har qandaki may durdidan bo'lsa, ne tong?!
She'rimda agar xazl, agar jid, kechurung,
Yaxshi borida agar yomon bo'lsa, ne tong?!
* * *

Hijron g'amidin necha shikoyat qiloling,
Kelgilki, visoldin hikoyat qiloling.
Tengri haqi, bizni deb agar sen kelsang,
Ko'nglungagidek lutfu inoyat qiloling.
* * *

Kelgilki, dame o'lturubon may icholing,
Dunyo g'amu ranjidan zamone kecholing.
Chun ayshu nishot lashkari saf tuzdi,
Ey mehnatu g'ussa xayli, sizlar sijoling!
* * *

Ko'rdung, dog'i ko'zushta giriftor etting,
So'rdung, dog'i so'zushta giriftor etting.
Bu tab'u kamoling bila o'z boshing uchun,
Boshdin meni o'zungga giriftor etting.
* * *

Ey yor, hazin ko'nglumni yod aylamading,
Mehringni kam aylading - ziyod aylamading.
Yo menda gunah bordur, unuttung yo sen,
Oyo, ne jihatdururki, yod aylamading?

* * *

Yo qahru g'azab birla meni tufroq qil!
Yo bahri inoyatingda mustag'raq qil!
Yo Rab, sengadur yuzum - qaro, gar oq qil,
Har nav' sening rizong erur, andoq qil!

* * *

Noz uyqusidin biror zamon oyilg'il!
Guldek kulub, ey g'unchadaxan, ochilg'il!
Ko'nglumni iliklading cholib chang, ey yor,
Changingdadurur ko'ngul - navozish qilg'il!

* * *

Doim sog'inib, ko'ngulni ol, xush qolg'il!
Rahmat nazarini menga sol, xush qolg'il!
Noxush edi buki, men yomon bordim, lek,
Sen lolauzor, yaxshi qol, xush qolg'il!

* * *

Ey yel, borib ahbobqa nomimni degil!
Har kim meni bilsa, bu payomimni degil!
Mendin demagil gar unutulon bo'lsam,
Har kimki meni so'rsa, salomimni degil!

* * *

Naqqosh, mening holima tadbir etgil,
Bir yog'lig' aro kashida taxrir etgil.
Ul safxada men xayol qilgon yanglig',
Ul yorg'a mushkilimni taqdir qilg'il.

* * *

To qilg'ali zikr tab' nomini ko'ngul,
Vird ayladi tab' ahli kalomini ko'ngul.
To hajr g'amu mehnati taskin topqay,
Istaydurur ahbob payomini ko'ngul.

* * *

G'avtoda may irtikob qilmoq mushkil,
Jong'a kuch ila azob qilmoq mushkil,
Bo'lmay dog'i mast xob qilmoq mushkil,
Ahhobdin ijtinob qilmoq mushkil.

* * *

Ey yor, sening vaslinga yetmak mushkil,
Farxunda hadisingni epshtmak mushkil,
Ishqingni dog'i bartaraf etmak mushkil,
Boshni olibon bir sari ketmak mushkil.

* * *

To vodiy hajringda qilibmen manzil,
Suvrat bila garchi ayrumen men bedil.
Vallahki, ey yor, sening yodingdin
Bir lahzayu bir zamon emasmen g'ofil.

* * *

Jonig'a yetishti tuzu tog' birla ko'ngul,
Dardini tugatmas isitmog' birla ko'ngul.
G'urbatda oyoq birla badan yetmasdek,
Yuz shukrki, tinchdur qulog' birla ko'ngul.

* * *

Yakson karaming qoshida mudbiru muqbil,
Oson sening ollingda jami'i mushkil.
Yo lutfu inoyat oncha qilkim, ko'taray,
Yo qahru g'azabni toqatim boricha qil.

* * *

Yuz hamd angakim, hamdin aning ahli maqol,
Yuz yil desalar tugatmagi amri mahol.
Vasfida xirad ojiz erur, notiqqa - lol,
Ne nav' sifat qilay oni jalla Jalol.

* * *

A'zoyu javorihingni hozir qilg'il,
Jon birla ko'ngul hoziru nozir qilg'il.
Har lahza bir andishayu bir fikrni qo'y,
Andishayu fikringni borin bir qilg'il.

* * *

Ko'zungdin erur, nazora qil, xastalig'im,
Qoshingdin erur g'am bila payvastalig'im.

Boshimni olib ketgay edim yuz qotla,
Bo'lmasa edi sochingg'a dilbastalig'im.
* * *

Sening bila menki, oshnolig' qildim,
Ishqingni hazin jong'a balolig' qildim.
Ko'rmay-bilmay meni vafosiz debsen,
Men senga ne nav' bevafolig' qildim?
* * *

Ko'nglum tilagi visol emishtuk, bildim,
Ul vasl dog'i mahol emishtuk, bildim.
Har qandaki bo'lsa mehribondur, der edim,
Ul dog'i g'alat xayol emishtuk, bildim.
* * *

Zulfig'a ko'ngul qo'yub, parishon bo'ldum,
Ko'z oldurubon yuziga, hayron bo'ldum.
Chin dey senga, Boburoki, oshiqlig'da,
Har neki qilib edim, pushaymon bo'ldum.
* * *

Husnung sifatini eshitib zor o'ldum,
Ko'rmay seni ishqingg'a giriftor o'ldum.
So'rg'ilki, g'aming firoqi behol etti,
Ko'rgilki, ko'zung hajrida bemor o'ldum.
* * *

Hijronda, sabo, yetgi falakka ohim,
Gar ul sori borsang, budurur dilxohim-
Kim, arzi duo niyoz ila qilg'aysen,
Gar so'rsa men xastani gulruh mohim.
* * *

Yillar tilab, ishni qobu saxlab turdum,
Yuz jahd bila ishni munga yetkurdum.
Mardona bo'l, emdi yaxshidur ish kelishi,
Tengriga seni, elni senga topshurdum.
* * *

Gar Ruhdam etsa erdi ohangi nag'am,
Majlisda ne huzn qolur erdi, ne g'am.
To borg'ali Ruhdam bizing majlisdin,
Majlis eliga ne ruh qoldi-yu ne dam.
* * *

O't soldi ko'ngulga ranju betoblig'im,
Suv qildi bu xasta jonni beoblig'im.
Bu ikkalasi agarchi bor muhliku sa'b,
Lek o'lturadur tongg'acha bexoblig'im.
* * *

Ey gul, ne uchun qoshingda men xor o'ldum?
Yuz mehnatu anduh bila yor o'ldum!
Vasling bila bisyor sevindum avval,
Qajring bila oqibat giriftor o'ldum.
* * *

Yuz nomai ishtiyoq tahrir ettim,
Yuz nav' bila vaslinga tadbir ettim.
Ma'zur tut, ey quyoshki, tole' yo'qidin
Vaslinga yetar mahalda taqsir ettim.
* * *

Yor yog'lig'idin ko'ngulni xursand ettim,
Ruhum qushini tori bila band ettim,
Ko'nglumni ne nav' uzay o'shal yog'lig'din,
Jon rishtasini torig'a payvand ettim.
* * *

Bemehr desa el seni, men butmas edim',
Hargiz bu sifatni senga yovutmas edim.
Nohaq og'rib, meni unuttung oxir,
Vallohki, sendin bu tama' tutmas edim.
* * *

Islom uchun ovorai yoziy bo'ldum,
Kufforu hunud harbsoziy bo'ldum.
Jazm aylab edim o'zni shahid bo'lmoqqa,
Alminnatulillohki, g'oziy bo'ldum.
* * *

Har kunda yuzungni ko'rmak erur xavasim,
Har kecha soching xayolidur hamnafasim.
Iso damidin ruh berur jismimg'a,
Sening soridin payom keltursa nasim.
* * *

Qotingda agar gunox. gohe qildim,
Yuz qotla nadomat bila ohe qildim,
Qildim yomonu asru tabohe qildim,
Lutfung bila sen kechur - gunohe qildim.
* * *

Ahbob unutmaza kerak ahdi qadim,
Yetkursa kerak xabar gahi payki nasim.
Bobur, chu umid ila qilur arzi niyoz,
Shoyadki, qabul aylagay tab'i salim.
* * *

Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdum,
Har kim bu "Vaqoye'shi o'qur, bilgaykim,
Ne ranju ne mehnatu ne g'amlar ko'rdum.
* * *

Hammomki, ark ichinda paydo qildim,
Sog'inmaki, sudin tabarro qildim.
Sud ushbu emasmukim, tadbir bila
Pokiza badanlarni tamosho kildim.
* * *

Yuz shukr qilayki, yona oshiq bo'ldum,
Olamg'a bo'lub fasona, oshiq bo'ldum.
Yaxshi so'zungen vasfi jamoling eshitib,
Ko'rmay seni goyibona oshiq bo'ldum.
* * *

Hammomki, qildim ko'rungizkim, ayyom,
O'xshatti aning bori ishi manga tamom.
Ko'z yoshiyu ko'ngul o'ti birla mendin
Gulchehralar istabon yuruydur hammom.
* * *

Ul yuzi quyoshki, bordur oydin afzun,
Husn ichra ul oy ollida xurshid zabun.
To bir kun ul oydin navozish topqay,
Ko'k doira bo'ldi-yu, jalojil oyu kun.
* * *

Ishqing yo'lida firoq ila netgaymen?
Bir yo'l ko'rsatki, vaslinga yetgaymen!
Vasling manga gar muyassar o'lmas bo'lsa,
Boshimni olib bir sorig'a ketgaymen!
* * *

Vasfingni necha ulusdin eshitgaymen,
Ne nav' qilib visolinga yetgaymen?
Gar vasl muyassar o'lmasa netgaymen?
Boshimni olib qay sorig'a ketgaymen?
* * *

Ul xatki, men anda seni yod etgaymen,
Ko'z oqida, koshki, savod etgaymen.
Kirpiklardin anga qalam rost qilib,
Ko'z qorasidin anga midod etgaymen.
* * *

Bir go'shai bog' o'lsayu sen bo'lsangu men,
May quysoq ikimiz qadah ichra bir hin.
Ondin so'ngra ayoq ilikka olibon,
Sen tutsangu men ichsam, men tutsamu sen.
* * *

Beqaydmenu harobi siym ermasmen,
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.
Kobulda iqomat etti Bobur dersiz,
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.
* * *

Mehring nedurur - burun chu bor, javr - keyin,
Befoida ishqing g'amini necha yeyin.
Holimni necha desam, demassen meni yor,

Sen demasang "Ey yor!" meni, men ne deyin?!

* * *

Hajringda ne qon qoldiki, yutmaydurmen?!

Ko'z yoshini bir lahza qurutmaydurmen.

Diydoringning haqqini, ey yuzi quyosh,

Tengri haqi, bir zarra unutmaydurmen.

* * *

Sen gulsenu men haqir bulbuldurmen,

Sen shu'lasen, ul shu'lag'a men kuldurmen.

Nisbat yo'qtur, deb ijtinob aylamakim,

Shahmen zlga, vale senga quldurmen!

* * *

Xattimni ko'rub, so'zumni chun bilgaysen,

Kelmakta bizga yel kibi yelgaysen.

Ixlosingni bilib yibordim qosid,

Rahmat senga, zinhorki, bot kelgaysen!

* * *

Ul bordiki, ishrat orzu qilg'aysen,

Ishrat tilamaklikta g'ulu qilg'aysen.

Chun ayshu farog' mumkin ermas zinhor,

Bobur, g'amu mehnat bila xo' qilg'aysen.

* * *

Ahbobg'a har xatki, savod etgaysen,

Bizni dog'i ul bitikda yod etgaysen.

Maqsudki, qosidi agar kelsa bu yon

Bir noma bila ko'ngulni shod etgaysen.

* * *

Hijronda sog'inib, meni shod etgaysen,

Men xastani muxlis e'tiqod etgaysen.

Bu xatni aning uchun bitidim munda,

Ko'rgach bu xatimni meni yod etgaysen.

* * *

Necha menga javr muttasil qilg'aysen?

Mehring yo'qu necha munfail qilg'aysen?

Javringni ko'rub, mehoni ko'rmas kettim,

Gar ko'rsamu ko'rmasam bihil qilg'aysen.

* * *

Zaxmingni ko'ngul tilar - ango qilg'aysen,

Zaxmingni ko'ngulga bexato qilg'aysen.

Til iki alif ko'ksama, na'l o'rtadakim,

Ko'nglum tilarin haqqin ado qilg'aysen.

* * *

Xush ulki, kelib yonimda o'lturg'aysen,

Yo bir nafas ollimda kelib turg'aysen.

Og'zingg'a o'par so'zin bitiy olmasmen,

Borgon kishidin og'iz so'zin so'rg'oysen.

* * *

Davlat bila shodu shodmon bo'lg'oysen,

Shavkat bila maighuri jahon bo'lg'oysen.

Ko'nglungdagidek dahr aro kom surub,

Bu dahr borincha Komron bo'lgoysen.

* * *

Eyki, yorolig' jismima marham sensen,

Majruh ko'ngulg'a nishtar xam sensen.

Gah shodu gahi g'amgin esam, ayb etma-

Kim, boisi shodmonlig'u g'am sensen.

* * *

Jonimda mening hayoti jonim sensen,

Jismimda mening ruhu ravonim sensen.

Boburni seningdek o'zga yo'q yori azizi,

Alqissaki, umri jovidonim sensen.

* * *

Eykim, manga mujda berding ul jonondin,

Qilding meni ozod g'ami hijrondin.

Bu mujdani ne nav' sifat qilg'aymen,

Go'yoki, xabar berding o'lukka jondin.

* * *

Davron meni o'tkardi saru somondin,

Oyirdi meni bir yo'li xonumondin.
Gah boshima toj, gah. baloyi ta'na,
Nelarki, boshimg'a kelmadi davrondin.
* * *

So'z so'rg'ali la'li nuktadoning topmon,
Yuz surtgali ul ostoning topmon.
Benomu nishonlig' istasam, ne tongkim,
Nomingni eshitdimu nishoning topmon.
* * *

Ahbob yig'inidin necha qolg'oymen,
O'zumni netib ul arog'a solgoymen?!
Borsam dag'i anda mehmon kasratidin,
Ma'lum emaski, yer topa olg'oymen.
* * *

El suhbatiniki, orzu qilmishmen,
Ne xushlug' ila bu guftugo' qilmishmen.
Ishrat bila ayshni ne ish qilg'oymen,
Menkim, g'amu mehnat bila xo' qilmishmen.
* * *

To tarki manohiyu sharob etmishmen,
Nafsim'ga Xudoy uchun azob etmishmen.
Tavba eshigi hanuz ochuq erdi,
Bu tavbada bir nima shitob etmishmen.
* * *

May tarkini qilg'ali parishondurmen,
Bilmon qilur ishimniyu hayrondurmen.
El barcha pushaymon bo'luru tavba qilur,
Men tavba qilibmenu pushaymondurmen.
* * *

Ishqing meni qildi asru shaydo, netayin?
Olam eliga ayladi rasvo, netayin?
Jonimni fido qilib sanga, andin so'ng
Dermenki, seni jon etay, ammo netayin?
* * *

Vaslingni tilab necha, sabodin bilayin,
Kelgilki, quyundek boshingga evrulayin.
Gar kelmasang, istasang meni xidmatingga,
Boshimni qadam qilib, qadamg'a kelayin.
* * *

Ishq ishini boshtin yana bunyod etayin,
Ishqing g'ami birla xotirim shod etayin.
Debsenki, unutma meni hijron aro, voy,
Seni unutub, ne kishini yod etayin?!
* * *

Yoring sening ilohiy "Taborak" bo'lsun!
Dushmanlaringga to'ma palorak bo'lsun!
Mulkungda farog'at bila xonliklar qil,
Mulkung bila xonlig'ing muborak bo'lsun!
* * *

Besabrmenu besaru somondurmen,
Bir g'amzadadurmenu parishondurmen.
Ne dinning ishin qildimu ne dunyoning,
Yo Rab, netay, o'z ishimga hayrondurmen.
* * *

Ul sho'xki, bildurdi vafodorlig'in,
Tark ayladi go'yoki sitamkorlig'in.
Lutf ayladi - yorliqqa farmon berdi,
A'do bila yordur, netay yorlig'in?!
* * *

Sening bila so'z muqarrar andoq qilayin,
Olamda seni mo'tabar andoq qilayin.
Tengri xaqi, bu xidmat agar sen qilsang,
Har nav'ki, ko'nglung tilar - andoq qilayin.
* * *

Nisyon qalamin necha menga surgaysan,
Vaqt o'ldiki, xajr nomasin burgaysen.
Budur tilagim - xatimni chun ko'rgaysen,
Albatta, o'zungni manga yetkurgaysen!

* * *

Kechrak kelasen, bu xastadin to'ydungmu?
Dil safhasidin harfi vafo yo'ydungmu?
Nomusu uyot kerak, uy, ot sahdurur,
Yuz qo'y uchun ul eshikka yuz qo'ydungmu?

* * *

G'am xonasi sori guzar, ey jon, qilma!
Ishrat uyini kulbai ahzon qilma!
Zulfung kibi ko'nglumni parishon aylab,
La'ling kibi bag'rimni to'la qon qilma!

* * *

Har zulfatin, ey ko'ngul, parishon bo'lma,
Har yuzga ham asru zoru hayron bo'lma.
Men senga demonki, tarki ishq et, lekin,
Andoq qilkim, so'ngra pushaymon bo'lma!

* * *

Muncha meni zor, ey yuzi xurshid, etma,
Furqat alamini menga jovid etma.
Tengridin agar sening umiding bordur,
Tengri uchun, ey oy, meni navmid etma.

* * *

Davlatqa yetib, mehnat elin unutm!
Bu besh kun uchun o'zungni asru tutma!
Borg'onni, kel emdi, yod qilmay, ey do'st,
Borish-kelishingni lutf etib, o'ksutma!

* * *

Hijron aro yod etib, meni shod ayla,
Mahjur ko'ngulni g'amdii ozod ayla.
Bu xatni aning uchun bitidim munda,
Ko'rgan soyi xattimni meni yod ayla!

* * *

Ko'z ravshan edi sening jamoling birla,
Ko'ngul xush edi sening visoling birla.
Bas tiyrayu noxush etti hajring bizni,
Emdi qilaling xo'y xayoling birla.

* * *

Sen anda farog'u ayshu ishrat birla,
Men munda harob ranju mehnat birla.
Asrarmen o'zum birla seni naqsh qilib,
Xursand bo'lurmen ushbu suvrat birla.

* * *

Netgay kishi bu falak nifoqi birla,
Etgay bu falak otu so'roqi birla.
Gah tirguzadur visol ayyomidin,
Gah o'lturadur shomi firoqi birla.

* * *

Rafgoriyu qaddig'a ravonim sadqa,
Bir boqishig'a ikki jahonim sadqa.
Og'ziyu beliga budu nobudum sarf,
Ko'ziyu labig'a jismu jonim sadqa.

* * *

Bobur mutavajjih o'lsa Langar sorig'a,
Qilmas nazari bixishtu kavsar sorig'a.
Sendin tilagumdur madad, ey shoh G'iyos,
Har vaqtqi, azm aylasam har sorig'a.

* * *

Azm ayla, sabo, yet guli xandoning'a,
Ne gulki, quyoshdek mahi toboning'a.
Yetgil dog'i ishtiyoq ila Boburdin,
Zinhor degil salom tuqqoning'a!

* * *

Keldim sanga yuz umid birla, ey moh,
Lekin, bordim yuzungni ko'rmay, yuz oh,
Hamsuhbatu hamrahni netay bu yo'lda?
Darding menga hamsuhbatu ishqing hamroh.

* * *

Ne xesh meni xushlaru ne begona,
Ne g'ayr rizo mendinu ne jonona.

Har nechaki yaxshiliqta qilsam afsun,
Xalq ichra yomonlig' bila men afsona.
* * *

Bu dahr aro gar ehtimoli bo'lsa,
Mendek senga yori louboli bo'lsa.
Ul yor base noziku yo'q menda adab,
Mendin, ne ajab, agar maloli bo'lsa.
* * *

Yor uldurkim, she'rg'a mayli bo'lsa,
Netgay kishi she'r g'ayr xayli bo'lsa?!
Ag'yorning ozorini har hol bila
Chekkaymen agar yor tufayli bo'lsa.
* * *

Dunyo borisi manga musaxhar bo'lsa,
Uqboda dog'i Xudoy yovar bo'lsa.
Budur tilagim ikki jahonda Haqdin,
Har ne tilasam, bori muyassar bo'lsa!
* * *

Bobur bila Mir ittifoqi bo'lsa,
Yo'qtur g'am agar jahon nifoqi bo'lsa.
Budur tilagimki, shoh dargohida
Men banda uchun hamisha boqiy bo'lsa!
* * *

Ko'nglushta nechaki, sayr matlub o'lsa,
Ahhobni so'rmoq dog'i marg'ub o'lsa.
Gar hajring imtidodi mundin ortar,
Qolmas manga sabr - sabri Ayyub o'lsa.
* * *

Xush ulki, bahor fasli bu dunyoda,
Bo'lg'ay tarab asbobi bori omoda.
Gar bo'lmasa asbob, etoling dangona,
Mendin gazaku taom, sendin - boda.
* * *

Ahhobqa qilsang guzar, ey yel, nogoh,
Ul jam'ni bu so'zumdin etgil ogoh.
Siz ko'rgandek eson-salomatturmiz,
Siz dog'i eson bo'lg'osiz, inshoolloh!
* * *

Jon vola erur la'li shakarboringg'a,
Ko'nglum ham erur harob ruhsoringg'a.
Guftoring erur boshdin-ayoq borchasi xo'b,
Men banda bo'lay boshtin-ayoq boringg'a.
* * *

Ey, oy yuzung ollida quyosh sharmanda,
Shirin so'zu yaxshi xulqungga men banda,
Hijronda necha noma bila so'zlashaling,
Yo sen beri kel, yo borayin men anda.
* * *

Necha bu falak solg'usi g'urbatqa meni,
Har lahza tugongusiz mashaqqatqa meni.
Ne chora qilay, netayki, Tengri go'yo,
Mehnatni menga yaratti, mehnatqa - meni.
* * *

Bedard habib bilmadi dardimni,
Tufroqcha ko'rmadi ruhi zardimni.
Mendin necha ko'nglida g'ubori bo'lg'ay,
Kettim muna, emdi topmag'ay gardimni
* * *

Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi,
Yo borcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki muyassar o'lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.
* * *

Yod etmas emish kishini g'urbatta kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatta kishi.
Ko'nglum bu g'aribliqda shod o'lmadi, oh,
G'urbatta sevunmas emish, albatta, kishi.
* * *

Ovoralig' asru xonumondin yaxshi,
Bir go'sha manga ikki jahondin yaxshi.
Ovora bo'lurni yaxshi ermas demagil,
Bo'lsam agar ovora, ne ondin yaxshi?!
* * *

Har so'zniki dermen sanga, lof o'limg'usi,
Bema'niyu harzayu gazof o'limg'usi.
Ul ishta agar muxolafat aylarsen,
Tengri haqi, bu so'zda xilof o'limg'usi.
* * *

Ey yor, jafu rasmi chiqormoq ne edi?!
Yo mehr giyohini qo'pormoq ne edi?
Bir mehr, yana lutf, yana javr nedur?
Bir bordingu kelding, yana bormoq ne edi?
* * *

Gar mehr bila bu charx evrulsa edi,
Jonlardin aning javfi kerak to'lsa edi.
Bobur kibi jong'a mehr bog'lar erdim,
Gar ushbu jahonda mehr, jon bo'lsa edi.
* * *

Holing'a, kerak, habib evrulsa edi,
Ishrat qadahi habibdin to'lsa edi.
Xush vaqtturur yoz, vale noxushmen,
Xushvaqt bo'lur edim, chog'ir bo'lsa edi.
* * *

Jon ahdi bor, ey nigor, yetmasmu edi?
Ul ahd bila qaror yetmasmu edi?
Emdi dog'i vasl intizorin berasan,
Muncha mahal intizor yetmasmu edi?
* * *

G'urbat tug'i yopqon ruhi zardimnimu dey?
Yo hajr chiqargon ohi sardimnimu dey?
Holing nedurur? Bilurmusen dardimni?
Holingai so'raymu, yo'qsa dardimnimu dey?!
* * *

Ishvang bila g'amzangaiyu nozingnimu dey?
Javrung bila so'zunggu gudozingnimu dey?
So'zung, qilig'ing, navozishingmu aytay?
Ovozu usulingniyu sozingaimu dey?
* * *

Ko'zum uyi yuzidin musavvar bo'ldi,
Bu vajah bila ko'ngul munavvar bo'ldi.
Yuz shukrki, Bobur kibi oshiqlikda,
Har neki tilab edim - muyassar bo'ldi.
* * *

Xattingni ko'rub, ko'ngulga hayrat bo'ldi,
She'ring eshitib, jong'a musarrat bo'ldi.
Bu necha mahal tag'oful etting, demagil,
Tole' yo'q ediki, muncha g'aflat bo'ldi.
* * *

Ey payk, borib sano bila qulluq, de!
Yer o'p, dog'i qo'p, ado bila qulluq, de!
Gar yor meni xastani so'rsa zinhor,
Mendin yuqunub, duo bila qulluq, de!
* * *

Nomangki, tirikligim nishoni erdi,
Har satri hayoti jovidoni erdi.
Har lafzida oshkor yuz harfi vafo,
Har harfda yuz mehr nihoni erdi.
* * *

Hajringda bu tun ko'ngulda qayg'u erdi,
Vaslingg'a yetishmadim - jihat bu erdi:
Ohim tutuni birla ko'zumning yoshidin
Yo'l balchiq edi, kecha qarong'u erdi!
* * *

Hajringda, agarchi jong'a bedod erdi,
Sensiz manga yuz fig'onu faryod erdi.
Fikringdin erdi, valek, xursandlig'im,

Zikring bila bu xasta ko'ngul shod erdi.

* * *

Xotirg'a xutur etti bu so'z yongla, axiy,
Aytay senga, sen quloq solib onгла, axiy.
Umrungni bu kun xush kechir ahbob ilakim,
Topilmagusidur ushbu kun tongla, axiy.

* * *

Eshitsa kishi bu sho'ru shevan, ne degay?
Doim bu tariyq ichkuni ko'rgan ne degay?
Dushman so'ziga kirma, eshit do'st so'zin,
Eshitmasa so'zni do'st, dushman ne degay?

* * *

Ishqingda ko'ngul harobdur, men ne qilay?
Hajringda ko'zum purobdur, men ne qilay?
Jismim aro pechutobdur, men ne qilay?
Jonimda ko'p iztirobdur, men ne qilay?

* * *

Shoxim, sanga ma'lum emastur, ne qilay?
Ohim sanga ma'lum emastur, ne qilay?
Men yuzu qoshing dermenu sen - badru hilol,
Mohim, sanga ma'lum emastur, ne qilay?

* * *

Boshimni tufayl ul saromadqa qilay,
Jonimni fido o'shal sihi qadqa qilay.
Bu xasta ko'ngul bila xamida qadni
Ko'zi bila zulfig'a aning sadqa qilay.

* * *

Yetsam sanga, qullug'umni cho'q arz qilay,
Sen yetsangu men desamki, yo'q arz qilay.
Ko'ptur so'zumu mahram emas hech kishi,
Ruhsat etsa, tobug'ungda-o'q arz qilay.

* * *

Hijron aro necha noma tahrir qilay,
Xoma tili birla hol taqrir qilay.
Xush ulkim, so'zum sanga desam vositasiz,
Sen andayu men munda - ne tadbir qilay?

* * *

Mening tilagim budurki, to zinda bo'lay,
Qar qanda esang, banda dog'i anda bo'lay.
Ne xulq edi, yona ko'nglum olding so'z ila,
Shirin so'zu yaxshi xulqungga banda bo'lay!

* * *

Husnungai sening kimki taaqqul qilg'ay,
Sendin boshqa nechuk tahammul qilg'ay?
Bu tab'u bu ixtilotkim, sendadurur,
Ne menki, bori olam elin qul qilg'ay.

* * *

Ash'oringkim, she'r oti to bo'lg'ay,
Tab' ahli anga volayu shaydo bo'lg'ay.
Har lafzi duru bahri maoniy anda,
Kim ko'rди dureki, anda daryo bo'lg'ay.

* * *

Arbobi hasadki, dunyodin dur o'lg'ay,
Istar sevaridin kishi mahjur o'lg'ay.
Doim ko'rayin yuzung alo rag'mi hasud,
Har kim ko'ra olmasa, ko'zi ko'r o'lg'ay.

* * *

Nosih so'zi sanga necha mardud o'lg'ay,
Yaxshiyu yamon qoshingda nobud o'lg'ay.
Bori emdi maosh, bir nav' etkim,
Haq roziyu olam eli xushnud o'lg'ay.

* * *

Yuz jahd ila yetmay sanga, ey oy, netay?
Hajring alamida necha yig'loy, netay?
Yo'q sanga vafoyu rahmu parvoy, netay?
Ey voy, netay? Voy, netay? Voy, netay?

* * *

Men necha jafoyu javrunga sabr etay?

Bir zarra vafoyu mehr yo'q senda, netay?
Chun boshim ayog'ingg'a qo'yarg'a yaramas,
Boshimni olib ayoq yetganча ketay!
* * *

Ahbob, firoqingiz bila el netgay?
Sizlarga kishi ne chora aylab yetgay?
Jam'iyatingizni jam' tutqay Tengri,
Boburni dog'i bu jam'da jam' etgay.
* * *

Qosidki yiboring, ayladi shod meni,
Doim bu yo'sunluq aylagil yod meni.
Ozodingga qul bo'layki, xatting keturub,
Hajring g'amidin ayladi ozod meni.
* * *

Har kim desa burno yo agar yongla meni,
O'zungga musohibu muxib angla meni.
Bu kun meni yod etib, unutmа tongla,
Zinhorki, ko'z tut ushbu kun tongla meni.
* * *

She'ring eshitur fikrini Bobur qildi,
Ne fikri xushu yaxshi tasavvur qildi.
Ko'zni yoruq ayladi savodi birla,
Mazmuni bila quloqni purdur qildi.
* * *

Hijron g'amidin zaif jonim so'ldi,
G'urbat alami birla ichim qon bo'ldi.
Yuz shukrki, muncha yilg'i g'am birla alam
Rohat bila ishratqa mubaddal o'ldi.
* * *

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki, ayladim - xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Qind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi?!
* * *

Husnungki sening shuhrai skroq o'ldi,
Jon birla ko'ngul vaslingga mushtoq o'ldi.
Hajring aro intizor haddin oshti,
Kel yo meni ista - toqatim toq o'ldi.
* * *

Idrokinggu tab'u hushungga banda bo'lay,
Ovozu usulu jo'shungga banda bo'lay.
Taqsim qilurda naqshlarga' abyot,
Ta'rib bila o'qushugata banda bo'lay.
* * *

Bu chehrai zardimdin uyolsang, netgay?
Rahmat nazarini manga solsang, netgay?
Bir ishva bila ko'ngul berib Boburg'a,
Bir bo'sa bila ko'ngulni olsang, netgay?
* * *

Gar sidq bila birovki, oshiq bo'lg'ay,
Ma'shuq visoli anga loyiq bo'lg'ay.
Pir ollida topqusi murodin beshak,
Har kimki, agar muridi sodiq bo'lg'ay.
* * *

Ishqing, netay, ixtiyorsiz qildi meni,
Sabrimni olib, qarorsiz qildi meni.
Olam zli ichra orsiz qildi meni,
Zuhd ahlig'a z'tiborsiz qildi meni.
* * *

Boburki, demas har kishiga har so'zini,
Elchingga dedi vale sarosar so'zini.
Sultonali ar so'zum senga desa, ne tong,
Ore, laqu daq degay qalandar so'zini.
* * *

Kelmas ko'zuma quyosh kibi gar mingdur,
Yoqmas menga gar oy mingi yanglig' mingdur.
Gil birla gul ichra farq eta olmasmen,

Gulxan bila gulshan menga emdi tengdur.

* * *

Ko'nglumki, erur quyosh kibi yuzungo,
Yl o'tdi-yu, kelmadi bu sori ul moh
Til birla ko'ngul ishq aro bir qildimu bas,
Yor og'rittii g'amin ko'ngulni ammo.
Tuyuqlar

Vasldin so'z derga yo'q yoro manga,
Hajr aro rahm aylagil, yoro, manga.
O'qung etti ko'p yomon yoro manga,
Marxami lutfung bila yoro manga.

* * *

Ulki, har ko'zi g'azoli Chindurur,
Qoshida payvayeta oning chindurur.
Chunki ko'p yolg'on aytti ul manga,
Gar desam yolg'onchi oni chindurur.

* * *

Meni behol aylagan yor oydurur -
Kim, oning vasli menga yoroydurur.
Gar visoli bo'lmasa, ketar yerim
Yo Xuroson, yo Xitoy, yo Roydurur.

* * *

Ishq ahli ishq dardini taning,
Ko'p yomondur, dardi ishqidin taning.
Har necha ko'zum och ersa, ko'z to'yor
Gar ochilsa siymdek nozik taning.

* * *

Mehrkim, ko'kka qilur ohang tong,
Ollida bo'lsa, emas berang tong.
Xoliyu ikki labidek bo'limg'ay,
Hindu ar keltursa shakkar tang-tang.

* * *

Kel, qilay jonni nisoring, o yorim,
Naqdi jonni bormu sendin oyorim?!
Bo'sa bersang gar tamom og'zing bila,
Kunji og'zingdin oloyin oyorim.

* * *

Sen kibi bir dilraboni bilmanam,
Oshiki sodikki derlar, bil, manam,
Qil tasavvur ko'z yoshimni bir tengiz,
O'zga oshiq ashki yanglig' bilmanam.

* * *

To chiqardi xat uzori pokidin,
Gul yuzi ozurda bo'ldi pokidin.
Istar erdi el burun yuz mehr ila,
Emdi ul yuz mehri ketti pokidin.

* * *

To ko'ngul berdim o'shal qoysorig'a,
Borgonini bilmadim qoy sorig'a.
Do'stlar, yorg'a meni sog'indurung,
Solsangiz nogah quloq qoysorig'a.

* * *

Shah, supuray ostoning yuz ila,
Tiymanakdin necha uray yuz ila,
Ikki yuzluk muddaiydin ne g'amim,
Gar ishim tushsa alardin yuzila?!

* * *

Ne balo biyikturur davlat tog'i,
Ko'yi g'amni ne bilur davlat tog'i.
Himmate tut, dog'i davlat istagil,
Ximmating bo'lsa, bo'lur davlat tog'i.

* * *

Jong'a soldi daf g'urbat norini,
Ko'z yoshim bo'ldi mo'g'ulning norini.
Bu aroda men degandek bo'lmasa,
Ko'zlay Issig'ko'lu andin norini

* * *

Qaddimni firoq mehnati yo qildi,

Ko'nglum g'amu anduh o'tig'a yoqildi.
Holimni sabog'a aytib erdim, ey gul,
Bilmon, sanga sharh qilmadi yo qildi?!
Qit'alar

Ey alarkim, bu Hind kishvaridin
Bordingiz anglab o'zga ranju alam.
Kobulu xush havosini sog'inib,
Hinddin garm bordingiz ul dam.
Ko'rdingiz - toptingiz ekin anda
Ishratu aysh birla nozu niam?
Biz dog'i o'lmaduq, bihamdilloh,
Garchi ko'p ranj edi-yu, behad g'am.
Hazzi nafsiy, mashaqqati badaniy,
Sizdin o'tti-yu, o'tti bizdin ham.

* * *

Davron g'ami bila sitamini unutgurur
Ul sabzchegara yor xayoli aladdavom.
Hijronida xayol eta olmon, bu turfakim,
Vaslida ham xayol agar bo'lsa, borcha xom.
Vasfida xomlik agar o'lsa, ne g'amdurur,
Chun daf' etar xayoli g'amu g'ussani tamom.
Chun yori rozdor qilurman seni xayol,
Asror fosh aylama zinhor, vassalom!

* * *

Bobur niyozu madhini yetkurgil, ey sabo,
Ul shahzoda Nosir olijanobqa.
Bo'l oyu yil farog'atu xushboshlig' bila
Bo'lguncha mohu sol oyu oftobqa.
Hijron cho'lida jahd bila po'yalar urub,
Istab ziloli vasl, yetishtim sarobqa.
Chun xost mundoq erdiki, hajringni chekkamen,
Bexost raj'at aylamisham Andarobqa.

* * *

Eyki, targ'ib qilursen chog'ir ichmakka meni,
Sozu xonanda bila soqiyu saxbo bormu?
Bovujudiki, o'tubtur chog'ir ichmak vaqti,
Majlis asbobini, bilmonki, muhayyo bormu?

* * *

Noumid bo'ldum, ey Mo'g'ul, sendin,
To eshitgimki, Andijon bording.
Aytg'on so'zga keldim, ammo, sen
Yaxshi kelding demay, yamon bording.

* * *

Qolmadi hurmat ahli olamda,
Olamu olam ahdidin yuv ilik!
Boburo, ikki podsholig'din
Yaxshiroq bu zamonda bir beklik.

* * *

Muyassar o'lsa agar yor vasli g'urbatta,
Vatanni ne qilayu o'z diyor nega kerak?
Yibordi yor manga yodgor deb xatini,
Manga habib kerak, yodgor nega kerak?!

* * *

Ne sud andin poy dar gillig'im,
Chu al do'stlardin ul oy yub emish.
O'zin forig'u bizni qilgon asir-
Kim, ermish bu yanglig' ul Ayyub emish.

* * *

Tamomi husn eli sog'u hushyor ekanda,
Durushtu tund agar bo'lsalar, bilingki, yeridur.
Chog'ir kerakki, ichib, bazm bo'lsa, barcha yigitlar,
Chog'ir ketur, bori xublar chog'irga tushkularidur.

* * *

Ne qilayin sening bila, ey til,
Jihatingdin mening ichim qondur!
Necha yaxshi desang bu hazl ila she'r,
Birisi fahshu biri yolg'ondur.
Gar desang kuymayin bu jurm bila,

Jilavingni bu arsadin yondur!

* * *

Ul sarvning harimig'a gar yetsang, ey sabo,
Bergil bu hajr xastasidin yod ko'ngliga.
Rahm aylabon sog'inmadi Boburni, bor umid,
Solgoy Xudoy rahmni Fo'lod ko'ngliga.

* * *

Bu viloyatka muqayyad bo'lmag'il,
Kel, Xuroson jonibig'a azm qil!
Gar borur bo'lsang, erurmen hamrahing,
V-ar turarsen, men borurmen jazm qil!

* * *

Yo'qturur nozingdin ozore manga,
Noz agar qilsang manga matlubdur.
Xoh ko'rsat lutfu xohi javr qil,
Har ne voqe' bo'lsa sendin xubdur.

* * *

Qilmasa ul oy nazar manga, ne tong?
Tengri tole' chun manga yorotmadi.
O'qi yorar erdi ko'nglum dardini,
Netayin, ko'nglum uchun yor otmadi.

* * *

Kobulu G'azni eliga aytingiz:
Bizga yer emdi Xushobu Beradur.
Qay sorig'a borg'asizkim, mulku mol
Bizga munda Haq taolo beradur.

* * *

Kimki, mubtal etar ul yotishini,
Sindururlar boshini yo tishini.
Negakim, o'z ishini tark etibon,
Harzagard o'lub, etar yot ishini.

* * *

Xurosang'a o'n oy tortib cherik, Kobul sori yonduk,
Qish ichra Chixchiron birlakim, ul yo'l vahmi jon oldi.
Bu fursatta kishi o'tmoydurur hargiz bu dobondin,
Biz o'ttuk, lek elning ilik-oyog'in sovuq choldi.
Necha kun qor tepib, muz yostonib, tashvish ila qo'nduk,
Sovuqu qor asru behd uchun el ko'ngul soldi.
Jebayu otlari elning qoldi aksar yo'l yomon uchun
Bu yurushta ziyon ko'b bo'ldi, bore yaxshi ot qoldi.

* * *

Eyki, debsen lutf etib, lutfi itobomez ila:
"Ko'nglung istar yorlar birla xamisha shod bo'!"
Mendinu kimdin yana bordur niqori xotiring?
"Mendinu kimdinki ko'nglung istamas, ozod bo'!"

* * *

Firoqing o'lturur oxir meni dilxastani beshak,
Meni o'ltur visolingda, ne ya'ni andoq o'lturmok.
Necha nosih. nasihat degayu, men ham ne qilg'aymen?
Azalda chunki bordur bu ko'ngulga ko'rguluk emgok.

* * *

Tariqi faqr suluk axlig'a ne xush yo'ldur,
Vale bu yo'lda keraklikturur rafiqi shafiq.
Tariqi faqr agar istasang, beri kelkim,
Suluk ahli demish: "alrafiqum summa tariq".

* * *

Otani chunki qibla debturlar,
Qibla yanglig' anga nazar qilg'il.
Ota og'ritma, ey otam, zinhor,
Ota ozoridin xazar qilg'il.

* * *

Bilur jahon elikim mehmon ziyofatidin,
Mening tariqim emas ijtinob qilmog'liq.
Qavo xush erdi-yu, ahbob dog'i qo'ymadilar:
Zarurat o'ldi chog'ir irtikob qilmog'liq.

To'rtliklar

Tutmag'il, ey gul, ravokim, ishqing ichra har g'arib,

Yerga bosh qo'yg'ay xazon yafrog'i yanglig' sarg'arib.
Shaxrdin bezor bo'lsa, ne ajab, bezar kishi,
Ishq aro bemor bo'lsa, tong emas, bemar g'arib.
* * *

Yor ko'b bemehrdur, tole' base noi'tamid,
Vahki, kun-kundin bo'lurmen o'z-o'zimdind noumid.
Vasl borgondek ko'nguldin, bordi ilgimdin ko'ngul,
Ne menga andin xabardur, ne anga mundin navid.
* * *

Kelki, bormay, seni ko'rmay yuz tuman armon bila,
Maqdamingda naqdi umrum sarf aylay jon bila.
Necha istarsen mening dardim'ga darmon, ey tabib,
Ishq dardi yaxshi bo'lg'aymu ekin darmon bila?
* * *

Necha mehrsizlikdin hijron yo'lig'a borg'ay?
Kim bu yo'ldin, ey ko'ngul, ul quyoshni qaytarg'ay?
Hech eshitmayin so'zni, g'amga soldilar o'zni,
Yo ko'ngulni, yo qo'zni, - qaysi birisin qarg'ay?
* * *

Abdussamadi Tarxon, ishrat bila bo'l beg'am,
Abdussamadi Tarxon, ishrat bila bo'l xurram.
El xamdami bo'lg'anda, ishqingda g'amu mehnat,
Abdussamadi Tarxon, ishrat bila bo'l hamdam.
* * *

Xayol etsam ul belni, hol eltadur,
Meni beli sori xayol eltadur.
Qadining xayolin ko'z asrab magar,
Ko'ngul ravzasig'a nix,ol eltadur?
* * *

Ey xush ulkim, qilsa g'amdin ko'nglini ogoh, ishq,
Aylasa beg'amlig'ining qissasin ko'tox, ishq.
Vah, ne kun bo'lg'ayki, qovlab aqlu donish xaylini,
Bo'lsa jon birla ko'ngulning kishvarida shoh ishq.
* * *

Safar azmini qilding, men boraolmay turub qoldim,
Nazar lutfini qilding mendinu men telmurub qoldim.
Aningdek tund surdi xajr raxshin ul qaroko'zluk,
Yiroqtin yuz alam birla qarosini ko'rub qoldim.
* * *

Seni ko'rmaslik ko'ngulga g'am edi, jonimg'a xam,
G'ayrning ko'rmakligi bo'ldi alam uzra alam.
Yo sening ko'rmakligingdin g'ayr bo'lsa erdi daf',
Yo seni ko'rmaydururmen, g'ayrni xam ko'rmasam.
* * *

Qadi furqati meni duto qilur,
Qoshi xajri qomatimni yo qilur,
Necha g'ayrg'a ul oy vafo qilur?
Necha jonima mening jafu qilur?
Masnaviylar
Sabo, ul gul harimig'a guzar qil,
Mening holimdin ul gulga xabar qil.
Salomim yetkur ul oromi jong'a,
Yana mundoq degil ul dilsitong'a:
"Yuzungni ko'rsatib, ko'nglumni olding,
Olib ko'nglumni, ko'zdin meni solding.
Degil dildorlig' mundoq bo'lurmu?
Tariqi yorlig' mundoq bo'lurmu?
Seni mundoq tasavvur qilmas erdim,
Bu yanglig' rah,msiz ham bilmas erdim.
Seni deb barcha olamdin kechibmen,
Rafiqu yoru hamdamdin kechibmen.
Zamone qilmadim sendin farog'at,
Vale, bordur senga mendin farog'at.
Meni avval o'zungga h.amdam etting,
Yona bilmon nega nomahram etting.
So'zungkim, Xizr suyidin nishondur,
Vale, ul suv kibi mendin nihondur.
Ne, ya'ni muncha bizdin so'z yoshurmoq,

Jafo oyinini haddin oshurmoq?
Birovningkim, birovdin ko'ngli qolur,
Kishi yuz so'z bila ko'ngulni olur.
Ajabkim, mendin, ey dildor, to'ydung,
Mening ko'nglumni bir so'z birla qo'ydung.
Uzatma muncha ham, Bobur, so'zungni,
Bu so'zlar birla xor etma o'zungni.
Agarchi ko'p so'zung bor, muxtasar qil,
Ul oyg'a so'zning aslidin xabar qil.
Gar ul so'z kim, yoshurdung, aytmassen,
Bu yanglig' odatingdin qaytmassen.
Sening sevmaligingni jazm etarmen,
Bosh olib o'zga bir sori ketarmen.
Agar botroq yibormassen javobim,
Bu xatdin ortuq o'lur pechu tobim".
* * *

Ey payki sabo, qotimg'a kelgil!
Eshit bu so'zumni, dog'i bilgil!
Yeldek yetib ul quyosh qoshig'a,
Quyun kibi evrulub boshig'a.
Yuz hasratu ishtiyoq birla,
Yuz ming alamu firoq birla.
Mendin tobug'ida bo'yla arz et,
Bu xidmatni o'zungga farz et:
"K-ey podshahi viloyati husn!
Sha'ningda kelibtur oyati husn!
Sen husn sariri podshohi!
Men ishq faqiri dodxohi!
Hajru g'aming etti zulmu bedod,
Ey jonu jahon, fitonu faryod!
Oyirilg'ali, ey nigor, sendin,
Oyirildi hushu qaror mendin.
Ko'zumda, agarchi, yo'q jamoling,
Ko'nglumdadurur, vale, xayoling.
Fikrim budururki, senga yetsam!
Zikrim budurur - so'zung eshitsam!
Bormadi ko'nguldin ul sochu yuz,
Yod ettim alarni kecha-kunduz.
Chun yo'q qoshinga yetarga haddim,
Qoshing g'amidan egildi qaddim.
Zulfung girihig'a bastadurmen,
Ko'zung havasida xastadurmen.
To oq yuzung yiroq tushti,
Ikki ko'zum ichra oq tushti.
Og'zing g'amidinki, tangdilmen,
O'lmay yururam, ne sangdilmen!
Lutf etki, harob bo'ldi holim,
Rahm aylaki, qolmadi majolim.
Xush ulki, yuzungni yona ko'rsam,
Hayron boqibon yuzungga tursam.
O'psam ayog'ing qo'yub yuzumni,
Surtub anga har zamon ko'zumni.
Bo'ynungg'a qo'lum hamoyil etsam,
Sarvingni o'zumga moyil etsam.
Gah ilkima g'abg'abingni olsam,
Gah og'zima ul labingni olsam.
Ko'zumni ko'tarmasam ko'zungdin,
Yuzumni ko'tarmasam yuzungdin.
Gah og'zing'a tilingni olsam,
Gah og'zing'a tilimni solsam.
Hosilki, agar qoshing'g'a yetsam,
Ko'nglum tilagancha ishrat etsam.
Yuzung yana ko'rsam erdi, ey jon,
O'lsam dog'i qolmas erdi armon.
Yuz muncha xayollar qilurmen,
Yoding bila hollar qilurmen.
Men ushbu xayollar bila shod,
Sen meni qilursen o'zgacha yod.

Mahjur ko'ngulni shod qilmay,
Yaxshi so'z birla yod qilmay.
Yolg'on so'z ila itob etarsen,
Yuz qahr bila xitob etarsen.
Gar yolyuni bo'lsa zohir, ey do'st!
Sharmanda bo'larsen oxir, ey do'st!
Ey yor, sen aylama tasavvur-
Kim, ko'nglini o'zga qildi Bobur.
Yuz hursifat qoshimg'a kelsa,
Yuz tig'i jaf o boshimg'a kelsa.
Ko'nglumda hanuz o'shal vafodur!
Boshimda dag'i o'shal havodur!
Fikrim o'shalu xayol o'shaldur!
Dardim ulu zor hol o'shaldur!
Gar munda taraddud etsa oyim,
Bu so'zda guvoh erur Xudoyim.
Hol ul edikim, hikoyat ettim,
Gah shukru gahi shikoyat ettim.
Har neki ko'ngulda erdi - dedim,
Emdi sendin budur umidim:
Har ishta shitob qilmag'aysen!
Bu tavr itob qilmag'aysen!
Qolgon ko'nglumni olg'asen bot,
Olg'on nazaringni solg'asen bot.
Gar yaxshiyu gar yamon qilursen,
Dedim sanga, emdi sen bilursen.
To daxrdurur, salomat o'lg'il!
Xushluq bila to qiyomat o'lg'il!
Xushvaqtlig'ing mudom bo'lsun!
Davlat sanga muyetadom bo'lsun!
* * *

Xotirimni tilar esang, kel, qo'p!
Bu so'zumni eshitgil, ey yel, qo'p!
Ul parining harimig'a guzar et!
Meni devona holidin xabar et!
Degil avval anga salomimni,
Yana arz ayla bu payomimni-
Kim: "Sanga nomalar ravon qildim,
Qolatimni borin bayon qildim.
Seni dedim umid ila, ey yor-
Kim, olib ko'nglum o'lg'asen dildor.
Yo'qkim, ko'shlumga javr qilg'aysen,
Yorlig'ni bu tavr qilg'aysen!
Kam emas erdi yor olamda,
Har taraf yor bor olamda.
Boridin seni ixtiyor ettim,
Jonni ishqingda beqaror ettim.
Garchi, ko'p furqatingda qon yuttum,
Lek, doim visola ko'z tuttum.
Bilmadimkim, firoq ko'rgaymen,
Mehnati ishtiy oq ko'rgaymen.
Nomalar yozdim iztirob bila,
Sarfarozi etmading javob bila.
Muncha chog'liq niyoz zohir etib,
Muncha so'zu gudoz zohir etib.
Bo'lmadi, ey nigor, nozing kam,
Ne qilay, eldin ehtirozing kam.
G'amu dardu alam bila to'ldum,
Oxir ul-amr noumid o'ldum.
Noumid o'lub, o'lturub erdim,
Mutaxayyir bo'lub, turub erdim-
Kim, yana noma birla yod etting,
Qayg'uluq xotirimni shod etting!
Qo'yubon boshqa beqaror o'ldum,
Yana boshtin umidvor o'ldum.
Lutflar aylading, vale, ne sud?!
Emdikim, vasl ishidurur nobud.
Ey jaf o j o'y, mundog'ing bor emish,

Ko'nglung, ey yor, muncha yumshor emish.
Ne balo, berding intizor manga,
Ko'p jafu qilding, ey nigor, manga.
Bu qulung sanga chun kerak erdi,
Bu inoyat burun kerak erdi.
Emdikim, va'daga vafo qilding,
Meni o'zungga oshno qilding.
Hech bilmonki, chinmudur bu so'zung,
Yaxshiliqqa yaqinmudur bu so'zung?
Yo bu ham ishvayu firibmudur?
Do'stluqta bular hasibmudur?
Yorlig'ni, agar, qilur bo'lsang,
Yorlig' tavrini bilur bo'lsang.
Ahdu qavlum durustu mahkam qil!
Va'da chun aylading, vafo ham qil!
Chun bu dam vasl ishi yiroqdurur,
Ko'nglumiz xastai firoqdurur.
Har qachon vasl ishi yovuqlashsa,
G'amu hijron cheriki tarqashsa.
Yonmog'il aytqon hadisingdin!
Tonmag'il aytqon hadisingdin!
Shodmon qil meni visol bila,
Ixtilot et bu xastahol bila.
Banda Boburni muhtaram qilg'il,
Mahram et vaslinga, karam qilg'il!
Sanga ko'nglumdagin dedim, ey yor,
Emdi sendin javob umidim bor.
Xat javobig'a yo'lda bo'ldi ko'zum,
Vassalom, emdi xatm bo'ldi so'zum".
* * *

Ey sabo, yelmakni qo'ygil, hazm qil!
Sarvinozim ko'yi sori azm qil!
Yel kibi yet sarvinozim qoshig'a!
Ham quyundek evrul oning boshig'a!
Bosh qo'yub yerga, niyozim arz qil!
So'rsa holim sarvinozim, arz qil!
Oytil ul husn mulki xonig'a,
Demayin xon, balki jonlar jonig'a:
"Ko'rmayin yuzungai bemor o'lmisham,
G'oyibona oshiqi zor o'lmisham.
Hech bilmonkim, bilursen, ey nigor-
Kim, necha yildur chekarmen intizor.
Bir dog'i yod etmading bu necha yil,
Xotirim shod etmading bu necha yil.
Bahraye ko'rmay visolingdin dame,
Xoli yo'q erdim xayolyutgdin dame.
Fikring erdi do'stdoru hamdamim,
Yoding erdi g'amgusoru mahramim.
Zarra, ey oy, qilmading parvo manga,
Ne balo ko'rsatting istig'no manga!
Qilmading bir zarra istig'noni kam,
Bu na istig'nodurur, ey jonakam?
Sen bu yanglig' mast husnung jomidin,
Men muningdek ayru vasling komidin.
Nechakim, qildim vafo, ko'rdum jafu,
Nechakim, ko'rdum jafu, qildum vafo.
Yovushub erdimki, navmid o'lg'amen,
Ishqdin begona jovid o'lg'amen.
Ishq rohu rasmini unutmamen.
Zuhd tavru shevasini tutqamen-
Kim, bayaknogoh keldi qoside,
Yordin ogoh keldi qoside.
Vaslidin bir mujda berdi ul manga.
Jondin ortuq mujda erdi ul manga.
Vasfini nechuk qilay bu mujdaning,
Chinini qandin bilay bu mujdaning.
Bo'lsa chin bir noma kelmasmu edi,
Bir nasimi luf yelmasmu edi?

Qo'ygil, ey qosid, bular yolgondurur,
Mehru husn ahli bu ne imkondurur?!
Men ko'rubmen xo'blar javrini ko'p,
Men bilurmen xo'blar tavrini xo'b.
Gar so'zung chindur, yana bilmak kerak,
Yordin bir xat olib kelmak kerak.
Yettil avval xidmatig'a yorning,
Bo'yla arz et hazratig'a yorning:
"Yaxshi paygomingni yetkurdi rasul,
Lutfu ikromingni yetkurdi rasul.
Garchi qilding lutf, ey dilbar, manga,
Kelmadi lekin bular bovar manga.
Hajr o'tig'a necha yonsun bu ko'ngul,
Andoq aytgilkim, inonsun bu ko'ngul.
Gar vafo qilmoq xayoling bordurur,
Qo'y jafonikim, ko'ngul muztardurur.
Bir inoyatnoma birla yod qil!
Qil inoyat, xotirimni shod qil!
Yo meni qoshing'ga yetkur, qil karam,
Yo qoshing'a kel, ko'zumga bos qadam.
Har nekim ko'nklushta kelsa, ey pari,
Ul inoyatnomada yozg'il bari.
Gar sening vasling umidi bo'lmasa,
Vaslinga yetmak navidi bo'lmasa.
O'zga bo'lmas o'zni bilmaklik manga!
Balki mushkildur tirilmaklik manga!
Vasl ila farsuda jismim zinda qil!
Lutf ila Boburni boshtin banda qil!
Xat javobig'a chekarmen intizor,
Bot javobini yiborgil, ey nigor!
Har ne ko'nglumda edi - dedim tamom,
Xatm bo'ldi so'zum, emdi vassalom!"
* * *

Bir kecha xotirim mushavvash edi,
Ko'zda suv, ko'nglum ichra otash edi.
Dahr ishidin fig'on qilur erdim,
Xotirimni yamon qilur erdim.
Har zamon daxgji xitob qilib,
O'lturub, gax, qo'pub, shitob qilib.
Der edim: "Ey vafosi yo'q zolim,
Zulmdin yetti o'lgali holim!
Zulmdin o'zga ishni bilmaysen,
Meni miskinga rahm qilmaysen.
Gar men o'lturgulukmen - o'lturgil!
Yo'q esa, so'rguluk esam - so'rgil!
Har nechuk tavr qil, bu javr etma!
Har nechuk javr qil, bu tavr etma!
Yo'q edi hech ishim sening birla,
Neng bor, ey daxri dun, mening birla?
Kunji uzlatga ro' qilib erdim,
G'amu mehnatta xo' qilib erdim.
Ey xush ulkim, jamii hamdamdin,
Dema hamdamki, jumla olamdin,
Forig' erdim, qanoatim bor edi,
Qone' erdim, farog'atim bor edi.
Go'shaye ixtiyor qilgon edim,
G'aflat uyqusidin oyilgon edim.
Yana yuz ishvayu firib bila,
Hech bilmonki, ne hasib bila.
Davlat o'trusig'a meni solding,
G'aflat uyqusig'a meni solding.
Bori ahbobni qilib masrur,
Bori a'doni aylading maqhur.
Ota taxtida forig' o'lturdum,
Bal, otam ko'rmaganni men ko'rdum.
Olti oy ichra olti taxt oldim,
Yetni iqlima, balki, ko'z soldim.
Dedim, emdi murodima yettim,

Bilmadimki, g'alat xayol ettim.
Ishratu aysh vaqti yetgan chog',
Mehnatu g'ussa oti yitgan chog',
Yana maxrumi xonumon qilding,
Yana ovvorai jahon qilding.
Dardu g'amni manga anis etting,
Mehnatu ranjni jalis etting.
Aysh ila ishratimdin ayrildim,
Davlatu izzatimdin ayrildim.
Davlatu taxtu izzu joh qani?
Hamdamu hamnishinlar, oh, qani?
Bordi ul ayshu komronlig'lar,
Emdi kim ko'rsa holatim - yig'lar.
Ko'rsatib davlat, emgaking na edi?
Yerga urdung, ko'tarmaging na edi?
Bu nyochuk zulmdur - nihoyati yo'q?
Bu na yanglig' sitamki - goyati yo'q?
Dahrg'a ne vafoduru ne rahm,
Dahr ko'p bevafoduru berahm.
Yo'qturur mehri hech kishiga aning,
E'timod etma hech ishiga aning.
Goh kufr ahlini musallat etar,
Ahli dinning ishini munhat etar.
Goh bir qulni podshoh qilur,
Shohni banda goh-goh qilur.
Goh johilni sarbaland aylar,
Goh oqilni poyband aylar.
Jonu ko'nglida juz jaholat yo'q,
Hech ishida aning adolat yo'q.
Ne vafo qilganini bilsa bo'lur,
Ne jafosig'a sabr qilsa bo'lur.
Ne qilay, ne kishidin istay dod?
Kimga dahr ilgidin qilay faryod?
Dahri dundin shikoyatim ko'ptur,
Dahr elidin hikoyatim ko'ptur!"
Ushbu holatta notavon ko'nglum,
G'ussadin topmogon omon ko'nglum.
Uz qatiq holatig'a yig'lar edi,
Ko'z qatiq holatig'a yig'lar edi.
Keldi boshimg'a subhidam oxir,
Mehrdin urdi subh dam oxir.
Meni o'z dedi mehribonlig'din,
Necha so'z dedi mehribonlig'din.
Manga so'zlarki, tong bu tun qotti,
Jonima o'qlar erdi, tong otdi.
Subhi sodiqlig'i chu zohir edi,
Nafasi subhning muassir edi:
"K-ey faloni, bu ne razolattur?
Ne jaholatturu ne holattur?
Necha dunyo g'amidin etmaklik,
Ko'p so'z oning uchun engatmaklik.
Arzimas g'am yemakka bu dunyo,
Bal, otin ham demakka bu dunyo.
Tama' uzgil bu zski dunyodin,
Xotiringdin chiqar bu dun yodin.
Davlat uchun ko'ngulni zor etma!
Izzat uchun o'zungni xor etma!
Ko'z ochib-boqqucha safo yo'q anga,
Ko'z yumub-ochqucha baqo yo'q anga.
Dahrdin kimga bo'lma multamasi,
Besh emas orzu bila havasi.
Nafsning kasbidur havoyu havas,
Ruh olidadur bular yaramas.
Nafs dushmandurur yaqin bilgil,
Do'stum, bu so'zumni chin bilgil.
Dushmanedur, agarchi, o'tru emas,
Lek, bir lahza sendin ayru emas.
Garchi zohirda to'g'ridektur nafs,

Jisming uyida o'g'ridektur nafs.
Burnog'ilar so'zin nazar qilg'il,
Uyning o'g'risidin hazar qilg'il.
Nafs tavsanini rom qil o'zungga,
Qodir o'l harna so'z desang so'zungga.
Necha nafs ilkida zabun bo'lmoq,
Suxrai zumrai junun bo'lmoq.
Ne desang nafsning rizosi bila,
Neki qilsang aning havosi bila,
Fisq qilmoqdin o'zga fikring yo'q,
Fahsh demaqdin o'zga zikring yo'q.
Uyla razlu lavand o'lubsenkim,
Xalq aro rishxand o'lubsenkim.
Har zamon bir lavandi masharaye,
Ma'siyat dudidin yuzi qaraye.
Uzni yondoshturub o'zung birla,
So'zni chirmashturub so'zung birla.
Oni o'zungga sen bilib hamdam,
Oni so'zushta sen qilib maxram.
Qilg'asiz xalqni tuman g'iybat,
Degasiz otingizni xushsuhbat.
Har yamon bor - yor qilg'aysiz,
Har yamonlig'ki bor - qilg'aysiz.
Nogahon bir javon guzor aylab,
Ollida o'zni beqaror aylab.
Har yigitkim, ko'runsa xol qilib,
Keynida yuz tuman xayol qilib.
Bu ne umru bu ne balolig'dur?
Bu ne tavru ne yuz qarolig'dur?
Yo'qturur hech e'timid sanga,
Tengridin yo'qmudur umid sanga?
Lodalig' birla umrum o'tti, netay?
Qay sorig'a bu umr birla ketay?
Umr g'aflatta o'gkarib borasen,
Ey yigit, voqif o'l, qarib borasen.
Haq taolo nega yaratti seni?
Odamiylar sonig'a qotti seni.
Kim, o'zung birla fikr qilg'aysen,
G'aflat uyqusidin oyilg'aysen.
Bilgasen jahd ila bori sifatini,
Qilg'asen dark Tengri ma'rifatin.
Rost qilg'aysen e'tiqodingni,
Bilgasen mabda'yu maodingni.

* * *

Jismingga za'f esa, jonim sadqa!
Jonishta ikki jahonim sadqa!
Ko'zungga bu tani bemor fido,
Beligacha bu badani zor fido!
Sensizin jism bila jonni netay?
Dard sendin esa darmonni netay?
Manga sensen bu jahondin maqsud,
Ne jahon, jism ila jondin maqsud.
Qomating yanglig' uzun yosh topqil!
Umr husnung kibi dilkash topqil!
Qosiding keldi - safo kelturdi,
Xabari mehru vafo kelturdi.
Nomani manga ravon aylabsen,
Joni yo'q jismima jon aylabsen.
Ko'rubon nomani o'zdin bordim,
O'qubon so'zini so'zdin bordim.
Ko'rgach-o'q ko'zuma surtub o'ptum,
O'pgach-o'q boshima qo'yub qo'ptum.
Borcha mazmuni aning xub erdi,
Bori lafzi dag'i marg'ub erdi.
Yorda mehru vafo bor ermish,
Lillahil-xamd, vafodor ermish.
Tunu kun fikru xayolim budurur,
Oyu yil tavrumu holim budurur.

Hajrning kulbasidin ketgaymen,
Vasl koshonasig'a yetgaymen.
Vaslingga Tengri meni yetkursa,
Lutf etib, manga seni yetkursa.
Yetgach-o'q evrulayin boshingdin!
G'oyib o'lmay nafase qoshingdin!
Men demasmenki, dudog'ini o'pay,
Gar ilik bersa, ayog'ini o'pay.
Bir zamon xoli emon fikringdin,
Bir nafas g'ofil emon zikringdin.
Gar desam jism ila jondin sen-sen,
G'arazim ikki jahondin sen-sen.
Oy yuzung yo'qda qaro kun bo'lsun!
Yeru ko'k ostinu ustun bo'lsun!
Har ne ko'nglumda edi men dedim,
Emdi sendin budurur ummidim:
Mehoning rasmini unutmag'osen,
Bevafoliq yo'lini tutmag'osen.
Burnog'idek meni yod etgaysen,
Xotiri xastani shod etgaysen!
G'ayri ixlosu duo birla salom,
Ne deyin o'zga, so'zum bo'ldi tamom!

* * *

Xotirim saklar esang, kel, qo'pg'il!
Bu so'zumni eshit, ey yel, qo'pg'il!
Ahli dil ollida sur'at bila yet!
Sanga har neki desam, sen arz et!
Mushkilim ollida taqdir etgil,
Holatim sharhini bir-bir etgil.
Degasen muCHtaqidu ma'mulum,
Ravishu tavru suluku yo'lum.
Bordur andoqqi, ayon aylabmen,
Men "Mubayyin"da bayon aylabmen.
Bir aning birla ish ochilmas emish,
Dardi dil chorasini qilmas emish.
Netayin, ne qilayin dardim uchun?
Chora kimdin tilayin dardim uchun?
Chora dardimg'a magar pir etgay,
Chorasiz ishima tadbir etgay.
Naylayin murshidu netay irshod?
Qobiliyat qaniyu iste'dod?
Musta'id bo'lu qil o'zni qobil,
Fayzlar to sanga bo'lg'ay vosil.
Senda ne sa'yu o'zingda ne qabul,
Ne ishing yaxshi, ne so'zung maqbul.
Ne oyoqkim, talabida yurugay,
Ne ko'ngulkim, havasida churugay.
Ne aning ishini qilmoqqa ilik,
Ne aning kunhini bilmakka bilik.
Shahvatu nafs giriftorisen,
Dad bila dev namudorisen.
Shahvatu nafs qaviy dushmandur,
Ming seningdekni zabun qilgondur.
Lazzati yeguluku ichkulugung,
Xushiyi kayfiyatu ichkulugung.
Mazai ashribayu hazzi yaxob,
Holatu nash'ai ma'junu sharob.
Hurvashlar bila hamdast o'lmoq,
Maykash el birla ichib mast o'lmoq.
Nash'ai subhu sabuhiy naigCHa,
Maykash el quvvati ruhi nash'a.
Tund raxshingai minib yeldurubon,
Elga o'zni tanitib - bildurubon.
Hukmung o'lmoq bori elga joriy,
So'zung o'lmoq bori yerda kori.
Tobe'ing mulki Xuroson bo'lmoq,
Hindu Chin olmog'ing oson bo'lmoq.
Qulluqu xidmating etmak yilu oy,

Nasli Jo'jjiyu urug'i Chig'atoy.
Borcha ishga bo'lubon dastrasing,
Kelib ilkingga, nekim, bor havasing.
Bori foniyu bori xechturur,
Seni dunyo boridin kechturur.
Bilmisham har neki, qilding taxrir,
Fahm qildim g'arazingni bir-bir.
Bu demaktin, bu bitiktin ne sud,
Talabekim, kerak uldur nobud.
Tengri qilgaymu ekin turfa sabab,
Hosil o'lg'aymu ekin ushbu talab?
Tengri tavfiqi magar yor o'lg'ay,
To kishi Haqni talabgor o'lg'ay.
Tengri tavfiqi deyu tek turayin,
Ne qilay, chorani kimdin so'rayin?
Tut quloqkim, budurur tahqiqi,
Tengrining bo'lmag'ucha tavfiqi,
Mumkin ermas bo'la olmoq hech ish,
Nega kerak sanga muncha pechish!
Kirdigor, manga tavfiqe ber!
Yurumakka rahi tahqiqe ber!
Umr g'aflat bila o'tkormishmen,
Nafs buyrug'i bila bormishmen.
Nafs yog'isini mag'lub etgil!
Ishlarimni borini xub etgil!
Bori hazdin meni oson o'tkar!
Ishlarimni mening oson butkar!
Go'shu hushumni so'zung sori qil,
Jonu ko'nglumni o'zung sori qil!
G'amlaring birla ovut ko'nglumni!
Ma'rifat birla yorut ko'nglumni!
Qo'yma Boburni bu holat birla!
Oni o'lturma batolat birla!
Bir kishini anga g'amxor etgil!
Himmatin badraqayu yor etgil!
Toki dardig'a davo yetkurgay,
Tortibon oni sengo yetkurgay.
* * *

Necha isyon bila oludalig'ing,
Necha hirmon aro osudalig'ing?
Necha nafsingga bo'lursan tobe',
Necha umrungni qilursen zoye'?'
Niyati g'azv ilakim yurubsen,
O'lmakingni o'zungga ko'rubsen.
Kimki o'lmak o'ziga jazm etar,
Ushbu holatta bilursenki netar.
Dur etar barcha manoh.idin o'zin,
Aritur jumla gunohidin o'zin.
Xush qilib o'zni bu kechmaklikdin,
Tavba qildim chog'ir ichmaklikdin.
Oltunu nuqra surox,iyu ayog',
Majlis oloti tamomin ul chog'
Hrzir aylab, borini sindurdum,
Tark etib mayni, ko'ngul tindurdum.
* * *

Ko'ngulga dardu g'amni ne yovutay?
O'zumni ovu qush birla ovutay.
Jahonning ahlidin uzgil tama'ni,
Bu olam ichra bo'l ozoda, ya'ni.
* * *

Ulki, taqdir xatin etti savod,
Ayladi oqu qaroni irshod.
Payvasta qoshini menga chitib,
Kirpik o'qini menga otib.
* * *

Ey qodiri barkamol, Tangrim,
V-ey qohiri zuljalol, Tangrim.
Ey berguchi Biru bor, Tangrim,

V-ey olg'uchi girudor, Tangrim.
Bo'lmas sifatingni desa, nechun-
Kim, borsen, ey Xudoy, bechun.
Ar tufroq erur kamoling andin,
Afzunroq erur jaloling andin.
Ko'b so'z eshitildi mag'firattin,
Ko'b nukta deyildi marhamatgin.
Har so'zki eshitsa, desa bo'lmas,
So'z borki, aytsa - desa bo'lmas.
Some'g'a agarchi ko'b havayetur,
So'z munda yetishti, emdi bastur.
* * *

Xush ul kunlarki, oshiq erdim,
Ishq ahli bila muvofiq erdim.
Har ne desa ishqdin, der erdim,
Har g'am esa ishqdin, yer erdim.
Ko'nglumda, ko'zumda ishq edi, ishq,
She'rimda, so'zumda ishq edi, ishq.
Ne yozda tinorimu ne kuzda,
Ne tog'da qarorimu ne tuzda.
Ko'r surati ishqkim, bor uch harf,
Uch harfdurur vale har uch harf.
Majmui huruf to'qquz o'lg'ay,
Har harfda bir ajab so'z o'lg'ay.
Borini bayon qilay, eshitgil,
Ko'ngluyuta ayon qilay, eshitgil:
"Ayn"i, ya'niki: ayb qilma,
Bal, ayb qilurni ko'zga ilma.
"Yo"si, ya'ni: yig'idurur tavr,
Gar yor tarahhum etsa yo javr.
"Nun"i buki: nang bo'lmag'ay hech,
Har nechaki rang bo'lmag'ay xech.
"Shin": shavqdurur shiori oshiq,
Onsiz kishi ishi ori oshiq.
"Yo": yod berur yagona bo'lmoq,
Olam aro benishona bo'lmoq.
"Nun"i buki: bu ishing nihon tut,
Dam urmayu ishq ishida qon yut.
"Qof"i buki: qavlungga durust o'l,
Ishq ishida sust bo'lma, rust o'l.
Aytay "alif"ini, senga, ey.yor:
Ozor bu ishda chekkil, ozor.
Bil oxiri jumla harfi "fo"ni:
Bo'l oxiri kori ishq, foniyb"b"
Kim bo'lsa bu vasflarg'a mavsum,
Ul oshiqi komil, o'zgalar yuf.
Lekin bu demonki, ishq birdur,
Bu vasflar ichra munhasirdur.
Sen demaki, ishq ushbu-o'qdur,
Ishq anvo'i, bil, asru cho'qdur.
* * *

Ey xush ulkim, bori eldin yoshurun,
Biz ikov bo'lsaku bir go'shayu tun.
Dafu changeyu rubobe bo'lsa,
Mayu nuqleyu kabobe bo'lsa.
"Darrai nur" mayin no'sh etsak,
G'ami hijronni faromush etsak.
Men o'zum ichsamu tutsam senga ham,
Sen dag'i ichsangu tutsang menga ham.
Dam-badam bodai gulrang ichsak,
Tun yarimig'acha ul rang ichsak.
Mast o'lub yotsak ikov, andin so'ng,
Ne huzur o'lg'usi yotqondin so'ng.
Umr aksar bu tariq o'tkarsak,
Xushturur gar bu tariq o'tkarsak.
* * *

Siposu sitoyish Xudovandg'a-
Ki, andin kushod o'ldi har bandg'a.

Anga ne misolu ne monanddur,
Xudovandlarg'a Xudovanddur.
Anga ne amiru anga ne vazir,
Anga ne shabihu anga ne nazir.
Ne yoroyu ne haddurur kishiga-
Ki, daxl aylagay Tangrining ishiga.
Yomonlig' bila yaxshilig' ul qilur,
Burung'i bila so'ngg'ini ul bilur.
Aziz ul qilur, xor ham ul qilur,
Shifo ul berur, zor ham ul qilur.
Base podshoni gado qilg'ay ul,
Gadolarni ham podsho qilg'ay ul.
Gadoyig'a bor shohliqdin nufur,
Ne shahliqki, dorayndin yuz futur.
Tilarmen gadoyig'a bo'lsam gadoy,
Bu davlatni qilg'ay muyassar Xudoy.
Deyin hamdidin so'ng rasulig'a na't,
Ilohiki, tushgay qabulig'a na't.
Rasuli jahonu habibi Xudoy-
Ki, andin kelur elga tiybi Xudoy.
Senga o'zni bu kun mute' istaram,
Seni tonglaliq kun shafe' istaram.
Nabig'a durud aytayin bardavom,
Ham avlodu ashobig'a, vassalom.
Chu hamdu sanodin ko'ngul topti kom,
Qilay emdi maqsud sori xirom:
Mening so'zlarim budur ahbobqa,
Bori xeshu atbo'u ashobqa-
Ki, qilg'aymen albatta darveshlik,
Tariqat yo'lida vafokeshlik.
Jahon ishlarin jumla tark etgamen,
Ketar vaqta beasar ketgamen.
Xiraddin bu ish garchi ko'bdurur,
Valekin bu devona ma'zurur.
Menga ko'b jihattin bu ish bo'ldi farz,
Jihatlarni aylay borin sizga arz:
Biri buki, tole' menga yor emas,
Sipehru kavokib madadkor emas.
Falakdin yetishti jafolar menga,
Balo uzra bo'ldi balolar menga.
Gahe qildi davlat bila hamnishast,
Gahe qildi mehnat bila yerga past.
Gahe to'ldurur jomi ishrat menga,
Gahe kelturur dardu mehnat menga.
Base qal'a berdi qabaldoq uchun,
Ko'tardi vale yerga cholmoq uchun.
Agar no'shi bir bo'lsa, yuz neshi bor,
Agar marhami bir, tuman reshi bor.
Birovni desam jon, qilur jong'a qasd,
Yebon tuzni, aylar namakdong'a qasd.
Bor ermish ajab shum tole' menga,
Esiz umrkim, bo'ldi zoye' menga.
Yana bir bukim ushbu fitrat chog'i-
Ki, bu jam'i badbaxt bo'ldi yog'iy.
Dedim, bu yig'ilg'ong'a topsam zafar,
Bu jam'i parishong'a topsam zafar.
Qilay bartaraf saltanatning ingan,
O'zumdin kam aylay ulus qarg'ishin.
Yana saltanat zikrini qilmayin,
Bu behuda ish fikrini qilmayin.
Xudo yo'li sori xirom aylayin,
Bu yo'l qat'ida ehtimom aylayin.
Uchunchi jihat budurur, do'stlar,
So'zum mag'zidin arayin po'stlar.
Ne bog'u ne gulning havosi menga,
Ne gulro'ylar muddaosi menga.
Ne yozu ne kuzdin ko'ngul ochilur,
Ne yoziyu tuzdin ko'ngul ochilur.

Ne tiru ne daydin menga nash'adur,
Ne nuqlu ne maydin menga nash'adur.
Ne davlat qolibturki, men ko'rmadim,
Ne ishrat qolibturki, men surmadim.
Base ayngu ko'b shurbi may qilmisham,
Bori orzularni tay qilmisham.
Alarni borin ko'rmisham, bilmisham,
Bularni borin topmisham, qilmisham.
Menga emdi ko'b orzu yo'qturur,
Yemon nafsima ko'b g'ulu yo'qturur.
Taalluq aloyiq bila qolmadi,
Ishim bu xaloyiq bila qolmadi.
Shariat ishida meni qodir et,
Tariqat yo'lida meni sobir et.
Ayirg'il meni jumla hamrohdin,
Yuzumni evurma so'yi Ollohdin.

* * *

Ne xabar erdi, sabo, yetkurdung,
Ne xabar, jong'a balo yetkurdung.
Ne kelib tundu ne noxush ketasen,
Ne dimog'imni mening xushk etasen.
Borurungda ne so'zumga kirasen,
Kelasen tundu ko'zumga kirasen.
Yo'q emish sabru saboting, ey yel,
Xunuk ermish harakoting, ani bil.

Fardlar

Holimni sanga aytib, xajr o'tig'a o'rtondim,
Ey yor, yamon qildim, har neki dedim - yondim.

* * *

Sanbo'sa sening ko'nglung gar istasa, andoq qil,
Sanbo'sa kerak bo'lsa, san bo'sa inoyat qil.

* * *

Qutulmoq firoqingdin oson emas,
Yetishmak visolingg'a imkon emas.

* * *

Darding o'lsa, ilojni netayin?
Sensizin taxtu tojni netayin?

* * *

Mehrubon istab, baloi bevafo'g'a uchradim,
Bevafo ermish, Xudoyim, ne balog'a uchradim?

* * *

Bo'ldum yana oshufta, devona dag'i bormen,
Go'yoki bu fursatta oshiq bo'lub o'xshormen.

* * *

Koshki el birla ul mahvash hikoyat qilmasa,
Yo hikoyat qilg'anini el rivoyat qilmasa.

* * *

Ko'nglum visolidin xushu ko'zumda nurdur,
Ko'z ravshani, ko'ngul xushi Abdushukurdur.

* * *

Bo'lmadi hargiz, netay, ul bevafo yorim mening,
Gar menga yor o'lsa ul, bo'lg'ay Xudo yorim mening.

* * *

Yorning ag'yorg'a meh_ru vafosin angladim,
Notavon ko'nglumga ham javru jafosin angladim.

* * *

Qadin ko'z jo'yborig'a ul oy bexost keltursa,
Oyog'idin ko'tarmay boshni, Tangri rost keltursa.

* * *

Ne osig' ishq aro man' aylamak oxu fig'onimni
Ki, men barbod bermishmen bu yo'lda xonumonimni.

* * *

Sengakim, arzi holimni ado men notavon qildim,
Muborak xotiringg'a noxush-ar kelsa, yomon qildim.

* * *

Mushtoqdurur xasta ko'ngul vaslinga bisyor,
Yorim kecha kelgilki, xabar topmasun ag'yor.

* * *

Eyki, la'li jonfizoing nuqlu maydin yaxshidur,
Kelgil ushbu kecha, yuz ko'rsatki, oydin yaxshidur.
* * *

Kelki, onda furqatingdin dog'i hirmon qolmasun,
Qolmasun g'amda ko'ngul, ko'nglumda armon qolmasun.
* * *

Ishqing mayidin, ey jonkim, mastu bexabarmen,
Gohi o'zumda yo'qmen, gohi o'zumda bormen.
* * *

Ko'zum yorug'lug'iyu xasta ko'nglum xushlig'i sensen,
Badanda jonsenu jonning dag'i dilkashlig'i sensen.
* * *

Senga holimni yozdim, sajda qildim,
Aytqilkim, ne yozdim, ne yongildim?
Otin og'zimg'a oldim ersa, tortar tig'i kin ul mah,
Meni agar o'lturur bo'lsa bu yozuq birla, bismillah.
* * *

Meni yo'q e'tiqodi deb, bori el ichra yod etma,
Xudoy uchun bori elni o'zungdek e'tiqrd etma.
* * *

Jahon chun bevafor, nechakim andisha Bobur qil,
O'zungni podshoxi jumlai olam tasavvur qil.
* * *

Mehr ila xursand etarsen, javr ila pomol ham,
Bir zamon g'amgin qilursen, bir zamon xushhol xam.
* * *

Ko'rmas jahonda hargiz ko'nglini shod Bobur,
Topmas murodi dilni, ey nomurod Bobur.
* * *

Bu ko'zaki, bo'ynumg'a qo'yub kelmisham oni,
Har kim bu chog'ir ichmasa, o'z bo'ynig'a qoni.
* * *

Yod aylamading hargiz, munchaki yolinibmen,
Sen meni sog'inmaysen, men seni sog'inibmen.
* * *

Xati birla ul oy xaddi: biri - mohu biri - hola,
Yuzi birla aning qaddi: biri - sarvu biri - lola.
* * *

Ulfatim el birla ozdur, ko'bdur el javri menga,
Ne mening tavrimga yoqar elga, ne el tavri menga.
* * *

Bahor mavsumi yettiyu xush xavo o'tti,
Tag'oful aylama soqiyki, o'tti, hr, o'tti.
* * *

Bodadin ishrat uyini doim obod etgasen,
Har qachonkim, boda no'sh etsang, meni yod etgasen.
* * *

Yo Rab, xavos jam'ida Boburni xos qil,
Yoxud avom tafriqasidin xalos qil.
* * *

O'zga hamdam istabon, jonimg'a mahram naylayin?
Menmenu ul oy xayoli, o'zga hamdam naylayin?
* * *

Ochildi ko'nglum o'shal gul'uzor kelganidin,
Nechukki, g'uncha ochilg'ay bahor kelganidin.
* * *

Bir fikru bir havodadurur har nafas ko'ngul,
Har lahza bir havas qiladur bulhavas ko'ngul.
* * *

Visol shavqidamen, ishtiyoq ko'rsatma,
Xudoy uchun menga asru firoq ko'rsatma.
* * *

Necha boshimg'a yog'durg'ay jafu toshini ul mahvash?
Necha sabr aylay oning javrig'akim, o'tdi haddin tosh?
* * *

May xumoridin o'lur har nafas afzun dardim
Soqiyo, kel, bir ayoq berki, ilikdin bordim.
* * *

Jafoni qo'y, vafo tarkini tutma,
Unutmasmen seni, sen ham unutma.
* * *

Senga oshiq emasmenkim, menga javr etgasen doim,
Sening nozingni kim tortar, mening sendin ne parvoim?
* * *

Gar ko'zungdin tushtum ersa, ko'rdum oni bodadin,
Bo'ldi taqsir emdi sen o'tkor meni uftodadin.
* * *

Chun zarurat bo'ldi, qildim sendin ayru mayli jom,
Har chog'irkim, ichmasam yoding bila, bo'lsun harom.
* * *

Tasavvur qilmag'ilkim, sendin, ey jon, o'zga qilg'aymen,
Ko'ngul ul, fikr xam uldur, ne imkon o'zga qilg'aymen?
* * *

Bormakim, ko'nglumda vasling ishtiyoqidur hanuz,
Kelki, vasling ishtiyoqi menda boqidur hanuz.
* * *

Eshikishta boshim qo'ymoq uchun har dam itob etma,
Bosh olib ketgum oxir eshikingdin, iztirob etma.
* * *

Yana oshuftaroq ko'rdum o'shal nomehrubonimni,
Ne ish qildim? Ne taqsir o'ldi? Bilmasmen gunohimni.
* * *

Hajr ila qo'nglumni buzding, vasl birla tuz meni,
Bordingu o'lturdung oxir, kel, dag'i turguz meni.
* * *

O'tgan oqshom va'da aylab, ul parirol kelmadi,
"Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi".
* * *

Ichib chog'irni, ishim telbalikka yovushti,
Nechuk tahammul etay, ichimga o't tushti.
* * *

Go'shaye tutsam, jahonning elidin g'am ko'rmasam,
Istaram el ko'rmasa meniyu men ham ko'rmasam.
* * *

Bizga chun mehring yo'q, elga mehrubonlig' qilmag'il,
Yaxshilig' chun qilmading, bore yomonlig' qilmag'il.
* * *

Jahon birla jahonning ahlidin behad malolim bor,
Biridin qat' etib, ul birga qotilmas xayolim bor.
* * *

Jonni fido qilib senga, bormen dag'i yomon,
Qilg'an hamondurur dog'iyu qilmag'an hamon.
* * *

Ey sabo, sharh aylagil hijronda avqotim mening,
O'tsa ul shahning tobug'ida agar o'tim mening.
* * *

Bo'ldi hajring do'zaxining bartaraf bo'lmoq chog'i
Kim, visolingning dalilidir ko'zumning uhmog'i.
* * *

Ham husnining binafshayu gul banda-bardasi,
Ham sarv erur chamanda bir ozodkardasi.
* * *

Tani zorimni de, gulshanda shoxi notavon ko'rsang,
Sarig' yuzumni sog'in, bog' aro bargi xazon ko'rsang.
* * *

Boburdurur bu ikki varaqning muharriri,
Biri butun varaqturu payvandlar biri.
* * *

Bormu erkin hech nima olamda hijrondin yomon,
Har nekim ondin yomonroq yo'q, budur ondin yomon.
* * *

Base, firoqida ichsam chog'ir, yig'im keladur,
Manga chog'irni keturmangki, achchig'im keladur.
* * *

Tutmagil, ey gul, ravokim, ishqing ichra bir g'arib,
Yerga bosh qo'yg'ay xazon yafrog'i yanglig' sarg'arib.

* * *

Zuhd sahrosig'a tushtum ishq yo'lidin ozib,
Boburi gumrahni emdi kim bu yo'lg'a ko'ndurur?

* * *

Ul ikki labi ramzi dard ahlig'a qilmaydur,
Gul g'unchasidur go'yo, bizlarga ochilmaydur.

* * *

Bor archi boisi yuz sho'ru yuz gunoh chog'ir,
Chog'ir firoqi qildi halok meni, oh chog'ir!

* * *

Firoqingdin yovushtum o'lgali, ey yor, kelgaysen!
Visolinga base mushtoqmen, zinhor kelgaysen!

* * *

Ul pariruhSORA hargiz notavonliq ko'rmasun!
Yaxshidur yaxshi kishi, hargiz yomonliq ko'rmasun!

* * *

Sendin ayru naylagaymen ayshu sahbo xushlug'in,
Ki, sening uchun tilarmen barcha dunyo xushlug'in.

* * *

Sening uchun vatanim ko'hu dasht bo'lg'usidur,
Aning uchunki, vafosiz g'azol ko'runasen.

* * *

Yor qadri bilmadim to yordin ayrilmadim,
Yor qadri muncha ham dushvor ekandur bilmadim.

* * *

Ko'rub hijron g'amin, jonong'a yettim,
Agarchi ranj chektim, jong'a yettim.

* * *

Meni hijronda kuydursang, ko'ngul sendin sovutmasmen,
Agarchi sen unutgung meni, seni men unutmasmen!

* * *

Qovun birla uzumning hajrida ko'nglumda g'am har so',
Oqar suvning firoqidin ko'zumdin har dam oqar su(v).

* * *

Jahon eliyu jahon borcha gar adam bo'lsa,
Adam yo'lini tutay zarra menda g'am bo'lsa.

* * *

Istaram yetsam quyundek gul'uzorim qoshig'a,
Ollida tufrog' bo'lub, evrulsam oning boshig'a!

* * *

Garchi olamda visol ayyomi dilkashdur, axiy,
To bilingay vasl qadri, hajr ham xushdur, axiy.

* * *

Mehribon sog'ing'onim nomehribon ermish, netay?
Yaxshilig' ko'z tutgonim asru yomon ermish, netay?

* * *

Necha ul yor yod etmay, meni ag'yor sog'ing'ay,
Ne kun bo'lg'ay meni dilxastani ul yor sog'ing'ay.

* * *

Bu dunyodin farah yo'qtur meni mahzung'a jononsiz,
Jahondinkim, desun, billoh, kerakmas manga jon onsiz!

* * *

Do'stluqni gar tilarsen aylasang isbot kel,
Suhbatingg'a asru ko'p mushtoqdurmen bot kel.

* * *

Xush ul burunqi zamonlarki, o'tgiyu bordi,
Xush ul kishiki, zamonlarni yaxshi o'tkordi.

* * *

Murod vasling erur - ayla yod Boburni,
Unutmog'il yana bu nomurod Boburni.

* * *

Ko'zumning nurisen, ko'nglum huzuri,
Tanim xurramlig'i, jonim sururi.

* * *

Sabzayu gullar bila jannat bo'lur Kobul bahor,
Xosa bu mavsumda Boron yozisiyu Gulbahor.

* * *

G'ayrg'a necha ul oy vafu qilur,

Necha jonima mening jafo qilur?

Qadi firoqi meni duto qilur,
Qoshi hajri qomatimni yo qilur.

Zahri hijron ichmisham, ber boda taryoki manga,
May xumori boshta cho'xtur, tut chog'ir soqi(y) manga

Bog' necha xo'b esa, ko'yicha yo'qtur,
Sarvni mavzun desa, bo'yicha yo'qtur.

Ag'yorg'a o'q urubon, dardig'a davo qiladur,
Bisyor yomon boradur, ul yor xato qiladur.

Bormoqqa ne maskan muyassar,
Turmoqqa ne davlat muyassar.

Biling muni davlat, gar o'lsa muyassar
Rahiqi muravvaq, rafiqi suxanvar.

Ishqni har kimki qilur ixtiyor,
Men kibi olamda bo'lur xoru zor.

Shayxu mullo Shihobu Xondamir,
Keling uch-uch, iki-iki, bir-bir.

Jamolingdin quyosh asru bot o'totlig',
Sochingga banda bog' ichra sunbul otlig'.

Vahmu usrattin amone toptuq,
Yangi jon, toza jahone toptuq.

Kel, ey rafiqi gulro'y, ketur raqiqi gulrang,
O'zung ichib, manta quy, ko'tar navo tuzub chang.

Yashurdi otini g'ayr ittifoqi birla ul qamdum,
Dedim otini elga, fosh qildim ittifoqin ham.

Ishq yuki ayladi sipehri a'loni ham,
Ne ajab, ar aylasa meningcha shaydoni ham.

Raqib yo'ldoshu men hajrdin duto o'ldum,
G'arib turki sitamgarg'a mubtalo o'ldum.

Boshim qadam qilibon visolinga yetayin,
Muyassar bo'lmasa vasl, bosh olibon ketayin.

Haj yo'lig'a kir, ko'ngul, himmat bila,
Ber qaz, oq ar o'lsa yuz ming qofila.

G'am yuzini ko'rma, bo'lsang jur'ayu jome bila,
Shukr qil, may no'sh qilsang gar gulandome bila.

Ne malak andoq erur, ne erur oncha kishi,
Qamar aning muqirri, quyosh aning qayoshi.

Har kimki, bo'yunni qo'ymas, oni tiygay,
Chopqay, talog'ay, mute'yu munqod etgay.

Qading jannat riyozining niholi,
Eram gulzori xadingning misoli.

Hajr shomi sochi savdosi chekar har yon meni,
Vahki, bu poyoni yo'q tun qildi sargardon meni.

Ko'pu ozg'a Tengridur berguchi,
Bu dargohda yo'qtur kishining kuchi.

Б† To'bo (To'biy) - jannatdagi rang-barang mevali va xushbo'y cersoya daraxt.

Б† Qad (Qomat) - ko'ngilning vahdat olamiga yuzlanishi, ilohiy mahbubaning o'ziga jalb qilishi.

Б† Sunbul - ingichka bargli, gullari halqa-halqa, qo'ng'iroqcimon va xushbo'y o'simlik. Ma'shuqaning cochi halqa-halqa va muattar hid taratishi jihatidan unga o'xshatiladi.

Б† Xat - qizlarning labi ustidagi mayin tuklar. Tacavvuf istilohida g'ayb olami.

Б† Mushkfom - mushk rangli, ya'ni qora.

Б† Alfoz - so'zlar.

Б† Boda - mayning nomlaridan biri bo'lib, tasavvuf adabiyotida ishq va irfon (ma'rifat) ramzi bo'lib keladi.

Б† Shurb - 1) ichish; 2) ulush, nasiba.

Б† Ilohiy mahbubani aql emas, ko'ngil bilan dark etish mumkin. Shuning uchun so'fiyona adabiyotda akl-hushni yo'qotish ulug'lanadi.

Б† Bu yerda rost so'zi ikki ma'noda kelayapti: birinchisi - bir haqiqiy navo qil, ikkinchisi - shashmaqomning sho'CHbalaridan biri.

Б† Evurish - o'girish, burish; aylantirish.

Б† Rafiq - do'st, sirdosh, hamroh.

Б† Za'f - xastalik, holsialik, quvvatsizlik.

Б† Tavahhum - vahimaga tushish, qo'rquv.

Б† Zanaxdon - iyak. Zanaxdon chohi - iyak chuqurchasi, kulgich. Tasavvufda solikni abadiy chohdan zulmat chohiga soladigan mahbubaning qahromez itobi.

Б† Andom - bu yerda: ko'rinish.

Б† E'joz - mo''jiza. Iyeo mo''jizasi - o'likka jon ato etish.

Б† Muzmar - pinhon, maxfiy.

Б† Yog'lig' ro'mol.

Б† Ar - agar bog'lovchisining qisqartirilgan shakli.

Б† Chekmak - bu yerda: tortmoq, sug'urmoq, chiqarmoq.

Б† Dayyor - sohib, uy egasi.

Б† Purkor - ishchan, faol.

Б† Sheva - 1) odat; 2) hunar; 3) noz-ishva.

Б† Bedil - oshiq, giriftor, muftalo.

Б† Mu'tod - o'rgangan, odatlangan.

Б† Sulton Uvays - Samarqand hokimi Sulton Mahmudning o'g'li, Boburning xolavachchasi (Sulton Nigorxonimning o'g'li).

Б† Olmon - olmayman.

Б† Chashmai hayvon - obi hayot chashmasi.

Б† Ayoq - may idishi, kadah, jom, kosa.

Б† Tahrik - harakat.

Б† Parcham - bu yerda: soch, kokil.

This is not registered version of TotalDocConverter

В† Xay - ter tomchisi.

В† Namudor - namoyon, zohir.

В† Kunj - chet, burchak.

В† Xunolud - qonga bulangan.

В† Asir (Osig') В Ъ" foyda, naf, bahra.